

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA**  
**INSTITUTI**

**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**  
**O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 - o'zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

**Bobojonova O'LMASXON TOHIR QIZI**ning  
**Umumna'lim maktablarida Abdulla Qahhor asarlarini**  
**o'qitish usullari** mavzusidagi

**BITIRUV – MALAKAVIY ISHI**

**NUKUS - 2017**

Malakaviy bitiruv ishi O‘zbek adabiyoti kafedrasida yig‘ilishining 2017-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi №\_\_ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dots. G.Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f.f.d.pof. K.Quramboyev
Ilmiy rahbarlar:	f.f.n., dots. O.Duysenboyev katta o‘qituvchi Sh.Aldasheva
Bitiruvchi:	O‘.Bobojonova

Bobojonova O‘lmasxonning «Umumta’lim maktablarida Abdulla Qahhor asarlarini o‘qitish usullari» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «\_\_\_» ball («\_\_\_%») qo‘yildi.

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017-yil

DAK kotibi:

N. Allamberganova

## **M U N D A R I J A:**

<b>KIRISH.</b> Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi.....	4
<b>I BOB. ABDULLA QAHHOR MAHORATI</b>	
1.1. Abdulla Qahhorning hayoti va ijodiy faoliyati.....	8
1.2. Adib asarlari haqida.....	12
<b>II BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ABDULLA QAHHOR ASARLARINI O'QITISH USULLARI HAQIDA</b>	
2.1. Abdulla Qahhor asarlarini o'qitishning zamonaviy usullari.....	17
2.2. Umumta'lim maktablarida Abdulla Qahhor asarlarini o'qitish usullarining axloqiy-ma'rifiy, ma'naviy – tarbiyaviy ahamiyati .....	23
<b>III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI.</b>	
3.1. Mavzuni amaliyotga tadbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar .....	31
3.2. Abdulla Qahhor asarlarini o'qitish bo'yicha dars ishlanmasi .....	44
<b>XULOSA</b> .....	58
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	60

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** XX asr o'zbek adabiyotining peshqadam namoyandalaridan biri Abdulla Qahhor nafaqat hayotni kuzatish, voqelikda kechayotgan jarayonlarga munosabat bildirish, balki xalq tili va dilining tarjimoni bo'lishga intilgan adib sifatida shuhrat qozongan. Birinchi Prezident I.Karimovning "... albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oily maqsad deb biladigan odamlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib keladi".<sup>1</sup> degan sozlari Abdulla Qahorning ba'zi bir hikoyalari uchun aytilgandek. Sababi, adib o'z hikoyalarida insonlar orasida uchrab turadigan ba'zi kamchiliklarni qattiq qoralaydi.

Abdulla Qahorning aytishicha, uning saksonga yaqin hikoyalari bo'lib, shulardan yarminigina olti jildlik "Asarlar" to'plamiga kiritgan, xolos. Ana shu hikoyalar orasida "Dahshat", "Anor", "Bemor", "O'g'ri", "Ming bir jon" singari adabiyotimizning oltin fondidan o'rin olgan asarlar borki, ularni o'qitishning zamonaviy usullari ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi

**Muammoming o'rganilganlik darajasi:** Ilmiy ishimizni yozishda o'zbek adabiyotining mashhur olimlari tomonidan Abdulla Qahhor ijodi va asarlariga berilgan baho, munosabatlar, fikrlarga tayanib, adib hikoyalaridagi qahramon masalasini bir oz yoritishga harakat qildik. Berdi Kerboboyev, G'abit Musrepov, Sami Abduqahhor, Tursinboy Adashboyev, Umarali Normatov, Said Ahmad, Matyayoqub Qo'shjonov, Naim Karimov, Erkin Vohidov, Jumaniyoz Jabborov, Abdulla Oripov va boshqa ko'plab allomalarimiz bildirgan fikrlarga asoslanganmiz.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi:** «Umumta'lim maktablarida Abdulla Qahhor asarlarini o'qitish usullari» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI

---

<sup>1</sup>. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. B.19

o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti o‘zbek adabiyoti kafedrasining «O‘zbek va turkey xalqlar adabiyotining o‘zaro aloqasi, taraqqiyot tendensiyalari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bevosita bog‘liq. Sababi, A. Qahhor asarlarini o‘rgatish hech qachon eskirmaydigan mavzu. Nafaqat o‘quvchilar, talabalar balki barcha insonlar adib asarlaridagi nasihat-o‘gitlardan faqat yaxshilik, ezgulik va shu kabi ajoyib fazilatlarni o‘rganishi mumkin deb o‘ylaymiz.

**Tadqiqotning maqsadi:** O‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan mashhur adibimiz Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘rganish va hozirgi davr nuqtai nazaridan tahlil qilish ilmiy ishimiz maqsadi va vazifasini tashkil qiladi. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda bitiruv-malakaviy ishda adib hikoyalaridagi qahramonlarni tahlil qilishda quyidagicha vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo‘ydik:

- Abdulla Qahhorning ijod mahorati to‘g‘risida ;
- adib ijodiga mashhur kishilarning bergan baholari haqida;
- yozuvchi hikoyalarini o‘qitishning ilg‘or usullarini o‘rganish;
- Abdulla Qahhor hikoyalarining badiiy qimmatini haqida;

**Tadqiqotning vazifalari:** O‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan mashhur adibimiz Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘rganish va hozirgi davr nuqtai nazaridan tahlil qilish ilmiy ishimiz maqsadi va vazifasini tashkil qiladi. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda bitiruv-malakaviy ishda adib hikoyalaridagi qahramonlarni tahlil qilishda quyidagicha vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo‘ydik:

- Abdulla Qahhorning ijod mahorati to‘g‘risida ;
- adib ijodiga mashhur kishilarning bergan baholari haqida;
- yozuvchi hikoyalarida davr muammolarining tasvirlanishini o‘rganish;
- Abdulla Qahhor hikoyalarida qahramon masalasi;
- Abdulla Qahhor hikoyalarining badiiy qimmatini haqida;

**Tadqiqotning obekti:** Abdulla Qahhorning “Dahshat”, “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Ming bir jon”, “Bek” va boshqa asarlari, A.P.Chexov, V.G. Belinskiy, Umarali Normatov, Matyoqub Qo‘shjonov va boshqa adabiyotshunos olimlarning adib asarlari haqidagi bildirgan fikrlari asosida qilingan hikoyalar tahlili tadqiqot obektini tashkil qiladi.

**Tadqiqot predmeti:** O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov asarlari va adabiyotshunos olimlar fikrlari, o‘qitishning yangi usullari haqidagi ilmiy – nazariy adabiyotlar va adib asarlari tadqiqot predmetini tashkil etadi. Bular quyidagilar: Karimov I.A. Adabiyotga e‘tibor – ma‘naviyatga, kelajakka e‘tibor. – T.: “O‘zbekiston”, 2009, R.Vohidov, H.Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent 2006 , Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. – T.: Tamaddum, 2010, Akademik litsey darsliklari, umumta‘lim maktablari, o‘rta – maxsus ta‘lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlari fan dasturlari, A. Qahhor asarlarini o‘qitishning bir qancha usullari haqidagi mulohazalar tadqiqot predmetini tashkil etadi.

**Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari:** Tadqiqot ishining metodologik asoslarini belgilashda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning milliy mafkura, milliy g‘oya, va ma‘naviy qadriyatlarga doir nazariy asarlari ustuvor manba bo‘lib xizmat qiladi. R.Orzibekov I. Rajabova, H.Boltaboyev, O.Sharafiddinov, M. Qo‘shjonov, Q. Yo‘ldoshev va boshqa yirik adabiyotshunos olimlarning ilmiy-nazariy adabiyotlardagi qarashlari va ularning ilmiy-nazariy qarashlariga tayanilib yozilgan asarlar.

□ Umumta‘lim maktablarida Abdulla Qahhor asarlarini o‘qitish usullari □ mavzusidagi malakaviy – bitiruv ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti o‘zbek adabiyoti kafedrasining «O‘zbek va turkiy xalqlar adabiyotining o‘zaro aloqasi, taraqqiyot tendensiyalari □ mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bevosita bog‘liq. Sababi, A. Qahhor asarlarini o‘rgatish hech qachon eskirmaydigan mavzu. Nafaqat o‘quvchilar, talabalar balki barcha

insonlar adib asarlaridagi nasihat – o'g'itlardan faqat yaxshilik, ezgulik va shu kabi ajoyib fazilatlarni o'rganishi mumkin deb o'ylaymiz.

**Ishning ilmiy yangiligi:** Abdulla Qahhor adabiyotga ajoyib hikoyanavis sifatida kirib keldi. Uning hajm jihatdan kichik, ikki-uch sahifadan oshmaydigan hikoyalarida haddan tashqari ixchamlilik, lo'ndalik, badiiy to'laqonligi, jummalarning nihoyatda siqqligi, chuqur ijtimoiy mazmun bilan yo'g'rilganligi kishini hayratda qoldiradi. Adibning "Bemor", "Anor", "Ming bir jon", "Asror bobo", "O'g'ri", "Mahalla", "Bek", "To'yda aza" va boshqa hikoyalaridagi qahramonlarning tahlil qilinishi, o'rganilishi ishning ilmiy yangiligidan dalolat beradi. Abdulla Qahhorning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni adid asarlarini umumta'lim maktablarida o'qitishning ilg'or usullari ilmiy ish yangiligini tashkil etadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tartibi.** «Umumta'lim maktablarida Abdulla Qahhor asarlarini o'qitish usullari» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti o'zbek adabiyoti kafedrasining «O'zbek va turkiy xalqlar adabiyotining o'zaro aloqasi, taraqqiyot tendensiyalari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bevosita bog'liq. Sababi, A.Qahhor asarlarini o'rgatish hech qachon eskirmaydigan mavzu. Nafaqat o'quvchilar, talabalar balki barcha insonlar adib asarlaridagi nasihat-o'g'itlardan faqat yaxshilik, ezgulik va shu kabi ajoyib fazilatlarni o'rganishi mumkin deb o'ylaymiz.

Tadqiqotimiz natijalaridan maktablarda, akademik litseylarda, oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun o'quv-qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, ma'ruza matnlarida foydalanish mumkin deb o'ylaymiz.

## **I BOB. ADULLA QAHHOR MAHORATI**

### **1.1. Abdulla Qahhorning hayoti va ijodiy faoliyati**

Abdulla Qahhor mohir so‘z san’atkori edi. Muayyan xarakter va holatni aks ettiradigan so‘zni qo‘llab va uni qolipiga tushgandek o‘rnini topib ishlatish unga maroq bag‘ishlardi. Bu jihatdan u haqiqiy mo‘jizakor adib edi. So‘z uning oldida bamisoli itoatkor askar, qaysi ma’no tomon buyruq qilsa shu tomon yuz tutib, xizmatiga tayyor turadigandek edi. Shunga qaramasdan so‘zlarni ayab, son jihatdan kam so‘z bilan katta va teran fikrlarni ifoda qila olishiga biz taajublanar edik. U shaxs – personajlarni, ular tushgan vaziyatni, bu vaziyatda ularning holatini aniq ko‘ra bilar va shu tarzda tasvirlay olardi. Uning asarlari hayotning o‘zidek tabiiy edi.

So‘zsiz, bu gaplar uning dramatik asarlariga ham xosdir. Biroq uning hikoyalarida va dramalarida yana ham yaqqolroq ko‘zga tashlanadigan boshqa bir belgilar ham bor edi. Bu – hayot nafasini, davr ruhini bexato ochish, faqat sezish emas, unu teran anglash, undan ulug‘ shaxs, adib sifatida dardlanish. Ha, dardlanish! Uning dramalarini tomosha qilarkansiz, personajlarning ba’zi birlarining ustidan kulib, g‘azablanib yomon ko‘rib qolardingiz, ba’zilariga esa o‘zingizda paydo bo‘lgan xayrixohlikni sezardingiz. Ammo bularning barchasining zaminida jamiyatimizning aktiv a’zosi, haqiqiy grajdanin ijtimoiy hayotdagi buzilishlarning ashaddiy dushmani, qalbi pok inson dardi turar edi. Biz o‘sha dardni baralla eshitar edik, o‘zimizni unga jo‘r hisoblar edik.

Abdulla Qahhor kam yozgan adiblardan. Ammo badiiyat jihatdan uning ijodi to‘lib- toshib oqqan katta daryo. Uning ijodiga tegishli masalalar darrov bir yoki bir necha kitob yozish bilan tugallana qolmaydi. Bu daryo kelajakda ham mavj urib oqadi. Har bir avlod undan o‘zicha zavq oladi, har bir davr adabiyotshunosligi unda yangi sir va ma’no topadi.

## O‘tmish fojialari

Yaqin o‘tmish klassik adabiyotimiz ko‘z gusidan kechmish hayotimizga bir nazar tashlasak, shunday bir manzara ko‘z oldimizga keladi: Alisher Navoiydan keyin to‘rt asr davomida adabiyotimizda kichik janrlarda yaratilgan hajviy asarlardan tashqari ko‘proq hayotning intim-lirik tomonini ars ettiruvchi asarlar yaratiladi.

Klassik adabiyotimizdagi intim-lirik yo‘nalish hayot bilan mustahkam bog‘liq edi. Ko‘pgina shoirlarimiz uchun bu yo‘nalish xalqning sotsial hayotini aks ettirishda asosiy vosita bo‘lib kelgan. Diniy hurofot tahdid qilib turgan bir paytda Turdi, Mashrab, Gulxaniy, Maxmur va Muqimiyga o‘xshagan shoirlar xalq hayotini aks ettiradigan lavhalar, manzaralarni ham qalamga oldilar. Lekin yirik sotsial tiplarning yaratilmaganligi o‘sha davr adabiyotining hali ham bo‘lsa to‘ldirilishi kerak bo‘lgan bir tomoni edi. Buni to‘ldirish sho‘ro yozuvchilarining zimmasiga tushdi.

Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Hamid Olimjon, Oybek, G‘afur G‘ulom va Shayxzodalar bu vazifani bajarish yo‘lida ozmuncha ish qilmadilar. Bizning tadqiqot obyektimiz bo‘lgan Abdulla Qahhor ham butun ijodi davomida, vaqti-vaqti bilan o‘tmishimizga murojaat qilib, uning sotsial mohiyatini ochib beradigan asarlar, xarakterlar va tiplar yaratib keldi.

## Dramatik fojia

Abdulla Qahhor fojiali voqealar tasviriga qo‘l urmoqchi bo‘lgan vaqtlarda adabiyotimiz anchagina tajribaga ega edi. Alisher Navoiy poyemalarida romantik bo‘yoqlar asosiy o‘rin tutsa-da, etakchi obrazlar tasvirida fojia elementlari ustun turar edi. O‘zbek adabiyotida fojيانing klassik namunasini Abdulla Qodiriy «O‘tgan kunlar» romanida yaratib bergan edi. Otabek va Kumushlarning fojia viy taqdiri o‘zbek adabiyotida realistik fojيانing asosi bo‘ldi. Biroq «O‘tgan kunlarda» ham romantik bo‘yoq bor. Qodiriyda bu ikki yo‘nalish – romantik ko‘tarinkilik, fojia viy taqdirlar – bir-birlarini to‘ldiradi, izohlaydi, yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan ma’noni kitobxonga aniqroq yetib borishi uchun xizmat

qiladi. Alisher Navoiyda fojia romantikani ulug'lasa, Abdulla Qodiriyda romantika fojiadan kelib chiqadigan ma'noni ulug'laydi.

Abdulla Qahhor bu har ikkala ustozdan o'rgangan bo'lsa ham, u tasvirlagan fojialar na uni va na buni takror qiladi. Abdulla Qahhor yaratgan fojialar faqat uning o'z ijodiy uslubiga mos.

...Oddiy bir mehnatkash yigit. Na cho'ntagida puli bor, na hovlisida – moli, na – bir parcha yeri... Hayotda birdan-bir boyligi – yaxshi ko'rgan xotini. Er-xotin amal- taqal qilib, u uchini bu uchiga ulab, bazo'r tirikchilik qilishadi.

Yigitning xotini boshqorong'i. Ko'ngli anor tusaydi. Yigit anor izlab chiqadi. Pul bo'lsa-ku darrov sotib olib, xotini xursand qilishi mumkin. Lekin puli yo'q. Tasodifan bir «o'lja» qo'lga kiradi. Lekin bu anormas, asalarining uyasi.

Bu detal shuni ko'rsatadiki, yigit boshqorong'ilikning ma'nosiga yaxshi tushunmaydi. Uning nazarida, boshqorong'i xotin biron tansiq narsani qo'msaydiyu ikkinchi bir tansiq narsa uning o'rnini bosaverishi mumkin. Yigit asalari uyasini tugunchaga solib kelar ekan, xotini xursand bo'lishiga imoni komil. Tugunchani xotini qo'lga tutqazmasdan turib, undan «akajon, jo-on akajon» ni aytiradi. Tugundagi narsa o'rniga hadya talab qiladi. Xotin esa unga «umrining yarmini beradigan» bo'ladi.

Xotin tugunni shoshib-pishib ochdi, «ochdi-da, bo'shashib ketdi va sekin boshini ko'tarib eriga qaradi». Ko'zi jiqqa yosh edi. Yigit bunday bo'lishini kutmagan. Xotini olib kelingan narsaning nima ekanini anglamadi deb o'ylab tushuntira ketdi: «Nima ekanini bildingmi? Turgan-bitgani asal. Mana-mana siqsang asal oqadi. Bunisi oq mum, harom emas – shimisa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'ladi». Xotin esa butun umidlari barbod bo'lib, dunyoda yashashning ma'nosini topmagan kishidek angrayar, bir nuqtaga tikilib o'tirar va nima qilishini va eriga nima deyishini bilmas edi.

Orada g'idi-bidi gaplar, dilsiyohlik, ko'ngil xiralik boshlanadi. Bunga chiday olmagan yigit kechqurun yana chiqib ketadi. Yarim kechada bir choyshab

anor ko‘tarib kelib xotining oldiga sochadi. Yigit holdan toygan, yuzlari oqargan, butun vujudini titroq bosgan edi...

Bu Abdulla Qahhorning «Anor» nomli hikoyasining qisqacha mazmuni. Oddiy bir mehnatkash yigit – Turobjon sevikli xotining eng oddiy bir talabini qondirishga qudrati etmaydi, buning uchun o‘g‘irlik qilishga majbur.

Bu mazmuni biz fojia deb atayapmiz. Odatda, o‘lim bilan tugallanadigan asarlarni fojia deyishga o‘rganganmiz. Bu hikoyada esa o‘lim yo‘q. Biroq o‘limdan ham yomonroq, dahshatliroq bir narsa bor. Bu – yigitning sevikli xotini istagini bajo keltira olmasdan iztirob chekishi, oqibatda o‘g‘irlik qilishga majbur bo‘lishi.

Biz qayd qilgan mana shu mazmunning o‘zi Abdulla Qahhor ijodining o‘ziga xosligini dalillashga qodir. «O‘tgan kunlar» dagi Otabek va Kumushlar fojiasini yaratishda Abdulla Qodiriy bu fojiani dalillovchi ko‘pgina voqealarga murojaat qiladi. Ular – butun mamlakatni titratgan katta-katta siyosiy va falsafiy masalalar: Osiyo qoloqligi, bu qoloqlikdan qutulish uchun o‘sha davr ilg‘or kishilarining bezovtalanishi; jaholat, uning natijasida yuzaga kelgan o‘zaro urush, qon to‘kishlar, taxt talashishlar. Bu voqealarning o‘zi hayotda qanchadan- qancha fojialarga sabab bo‘lgan. Otabek va Kumush fojialari mana shu qoloqlik va jaholatlar natijasi sifatida aks etadi. Faqat asarning ikkinchi qismida oilaviy va maishiy jaholat kuchga kirib, bo‘ladigan fojiani tezlashtiradi.

«Anor» da davrning siyosiy va ijtimoiy masalalari fojining sababi sifatida birinchi planga chiqarilmaydi. Fojining sababi sof oilaviy-moddiy masala. Siyosiy va ijtimoiy masalalar sahna orqasiga olinadi. Bo‘layotgan voqeaning orqasida biz boshqa yirik voqealar borligini, o‘sha voqealar natijasida Turobjon fojiali ahvolga tushganini sezib turamiz. Hikoyani o‘qib biz ko‘p narsalarni tasavvur qilamiz: Turobjon “Qutlug‘ qon” dagi Yo‘lchiga yoki “Boy ila xizmatchi” dagi G‘ofirga o‘xshab ne azoblar bilan kunini o‘tkazib yurganlardan, uylanishda ham qanchadan-qancha qiyinchiliklarni, tahqirlanishlarni boshidan o‘tkazib, biron baxtli tasodif tufayli sevgilisida erishgan va hokazo. O‘sha davrning iqtisodiy va falsafiy tomonlarini izohlaydigan bu masalalar ustalik bilan

tekst tagiga yashiringan, ro'y bergan voqeada ularning o'rni borligini sezamiz, lekin ko'rmaymiz, yozuvchi ularni ko'rsatish uchun harakat ham qilmaydi.

## **1.2. Adib asarlari haqida**

Badiiy ijodning imkoniyatlari nihoyatda katta. Har bir san'atkor, o'z ovozigga ega bo'lganidek, har bir san'at asari o'ziga xos yo'l bilan yaratiladi. "Anor"da biz asosan yaxshi topilgan va muvaffaqiyat bilan ishlatilgan detallarni ko'rdik. O'tmish fojiasini aks ettirgan "Dahshat" hikoyasida Abdulla Qahhor boshqa yo'l tanlaydi.

Badiiy ijodning imkoniyatlari nihoyatda katta. Har bir san'atkor, o'z ovozigga ega bo'lganidek, har bir san'at asari o'ziga hos yo'l bilan yaratiladi. "Anor" da biz asosan yaxshi topilgan va muvaffaqiyat bilan ishlatilgan detallar ko'rdik. O'tmish fojiasini aks etdirgan "Dahshat" hikoyasida Abdulla Qahhor boshqa yo'l tanlaydi.

Syujet tuzilishi jihatdan "Dahshat" "Anor"ga kam o'xshaydi. Yozuvchi bergan ma'lumotlarga qaraganda, "Anor" ning syujeti uning yoshligida kuzatgan bir voqeaga asoslangan. Bu voqea "Teshik tosh" nomi bilan "O'tmishdan ertaklar" xotiralariga ham kiritilgan. «Dahshat» ning syujetini yaratishda esa Abdulla Qahhor xalq og'zaki ijodi materiallaridan foydalanadi.

Qadimdan beri nasldan-naslga o'tib kelgan diniy afsonalar tufayli musulmon qabristoni eng dahshatli joylardan biri hisoblanadi. Shu sababdan bo'lsa kerak, erkaklar orasida qabristonga borib biror ish bitkazib kelib, yo mozor ashiylaridan nimanidir olib kelish botirlik nishonasi hisoblangan.

"Dahshat"da shu xildagi voqealardan bir parcha keltiriladi ham: "Bir qo'ydan garov qo'yilib mehmonxonadagi yigitlardan biri mozorga pichoq sanchib kelaman deb borgan, shoshilgandan pichoqni etagiga qo'shib sanchgan ekan. O'rnidan turaman desa birov tortgandek bo'lgan, qo'rqqandan yuragi yorilib o'lgan". Bunday gaplar xalq og'zida juda ko'p uchraydi. Abdulla Qahhor shu xildagi voqeani hikoyaning asosi qilib oladi.

Abdulla Qahhorning mahorati ham, “Anor” ning o‘ziga hosligi ham shundaki, u, “hayotning bu tomonlarini ko‘rsatmasdanoq tasavvurida qayta tiklashga yordam beradi. Mabodo hayotning bu tomonlarini ham batafsil tasvirlamoqchi bo‘lsa, yozuvchi hikoya ramkasidan chiqib ketgan bo‘lar, agar voqeani to‘la sig‘dirish uchun urinsa, chuchmal bir bayon maydonga kelib, hozirgi bir tahlil qilayotgan “Anor” chiqmas edi. Abdulla Qahhor o‘zi bilan hamma narsalarni hikoyaga tiqishtira berish uchun urinmagan, ma‘lum bir voqeani bu yerda, birinchi qarashda, uncha muhim bo‘lmagan bir faktni olib, katta-katta gaplarni o‘sha fakt tagiga yashirib, kichik bir hikoyada katta ma‘no aytgan, shu bilan o‘zbek hikoyachiligida namuna bo‘ladigan klassik asar yaratgan.

Gap hikoyaning janr xususiyatlari haqida ketayapti. Yozuvchi hikoya yozmoqchi bo‘lar ekan, ko‘pgina voqea va hodislarni nazarda tutadi. O‘sha voqea va hodisalarning kulminatsion nuqtasini, bitta-ikkita kishining taqdirini aniq qilib ko‘rsatadigan joyni olib tasvirlaydi. Bundan hikoya chiqadi. Boshqacharoq qilib aytganda, hikoya yozuvchi tomonidan qalamga olinmagan ko‘pgina voqea va hodisalarning yakuni natijasi sifatida maydonga keladi. Go‘yo yozuvchi quyoshning butun nurini bitta fokusga yig‘adi. Biz faqat o‘sha fokusdagi nurlarining yig‘imini ko‘ramiz. O‘sha fokusdagi nurlarni olamga yog‘du taratib turgan quyosh ekani bizga o‘z-o‘zidan ma‘lum.

Abdulla Qahhorning hikoyanavislik mahorati haqida yaxshi ishlar qilayotgan Umarali Normatov, “Anor”ni to‘g‘ri tahlil qilgan holda, bizning nazarimizda, hikoyaning janr talablariga nisbatan noaniqliklarga yo‘l qo‘yadi. U yozadi: “Hikoyachilik san’ati mavzu tanlashdan boshlanadi”. Qiziq qaysi bir janr mavzu tanlashdan boshlanmas ekan. Hech kim bahs qilmaydigan fikrni tasdiqlash uchun dominikan yozuvchisi Xuan Boshdan ko‘chirma keltiradi: “Mavzu tanlay bilish hikoyachilik texnikasining asosini tashkil etadi”. Juda to‘g‘ri, lekin kim bunga qarshi va bu faqat hikoya janriga tegishlimikin? Umarali Normatov Xuan Boshdan yana ko‘chiradi: “Hikoya so‘zsiz qandaydir muhim faktning tasviridan

iborat. Agar hikoya asosida yotgan hodisa arzimas bir narsa bo'lsa, uning ifodasi hikoya emas, shunchaki bir lavha bo'lib, o'tgan voqeaning oddiygina bayoni bo'lib qolaveradi". Qaysi bir janrda asarning materiali muhim bo'lmagan hodisadan iborat bo'larkan: dramaningmi, romonningmi?

Hikoyaning janr xususiyatlarini hayot materiali muhim yo nomuhimligidan, arziydigan yoki arzimaydiganligidan axtarmaslik kerakka o'xshaydi. Materialning qimmatini jihatidan hamma janrlar bir xil talabchan. Gap faqat o'sha hayot materiallarining tasvir qilinishida tavsilot me'yorida, qisman hikoyada hayot materialining bir bo'lagini yashirgan holda, olingan voqeadan katta ma'no chiqara bilishda bo'lsa kerak.

Umarali Normatov o'zining fikrini isbotlash uchun Belinskiydan ham ko'chirma keltiradi. Belinskiy deydi: Qachondir va qayerdadir - povest bu kishilik taqdirining poyonsiz poemasidan epizod, - deb juda yaxshi aytilgan edi. Bu juda to'g'ri fikr; ha, povest (Belinskiy bu yerda hikoyani nazarda tutayapti deb Umarali Normatov to'g'ri izoh bergan) qismlarga, minglab bo'laklarga bo'lingan romandir, romandan olingan boblardir..."<sup>1</sup> To'g'ri fikr. Lekin bu to'g'ri fikrdan noto'g'ri hulosalar chiqariladi. Umarali Normatov Belinskiyning maskur fikrini shunday izohlaydi, "B.G. Belinskiy ham hikoya janri haqida gapirganda hikoya uchun olinadigan janr uchun olinadigan materialning xarakteri (ta'kidlash bizniki- M.Q.) masalasini alohida ta'kidlab shunday deb yozgan edi"<sup>2</sup>.

Dominikan yozuvchisi hikoya janrining negizida "jiddiy voqea" yotishi kerak degan bo'lsa, san'atkorning mavzu va voqealar tanlashini nazarda tutib, Dog'iston yozuvchisi shunday deydi: "Ba'zilar ulkan mavzularni qalamga olib o'zim ham ulkan yozuvchi bo'ldim deb o'ylashadi. Lekin ular eng ulug' narsa, eng sodda narsada ekanini tushunmaydilar. Ulug' odam bilan tuban odam o'rtasidagi farq shuki, tuban faqat yirik narsalarnigina ko'radi, burnining tagida turganini ko'rmaydi. Ulug' odam esa, yirik narsani ham, kichik narsani ham ko'ra biladi, eng mayda narsada, eng ulkan narsa yotganini ko'radi va olamlarga ko'rsatadi"<sup>3</sup>.

Badiiy ijod tajribasida Rasul Hamzatov aytgan bu haqiqatni dallilaydigan faktlar juda ko'p. Yozuvchi Saida Zunnunovaning "Qo'llar" nomli hikoyasi bor. Hikoyani syujeti "Anor" dagiga o'xshagan oddiygina. To'y. Ayol o'g'lini uylantirayapti. To'ydan keyin u eridan qolgan kostuymni o'g'liga kiygizadi. Asosiy gap shu. Agar muhim yo nomuhimlikda bo'ladiga bo'lsa, bu voqea uncha muhim bo'lmasa kerak. Chunki, hayotimizda undan muhimroq, undan jiddiyroq voqealar to'lib-toshib yotibdi.

Biroq Saida Zunnunova "nomuhim" voqedan muhim hulosa chiqargan. Bu yerda ham "Anor" dagidek badiiy ma'no tekst tagiga yashiringan. Bu ma'no ba'zan bitta-ikkita so'z yo bitta-ikkita shtirx bilan aytib o'tilgan katta voqealar bilan hikoya asos qilib olingan "arzimas" voqeaning birligidan paydo bo'ladi. Hikoyani o'qiyotib biz bilamizki, bu ayolning eri Ulug' Vatan urushi yillari halok bo'lgan. Beva ayol mehnati tufayli oilani tebratib kelgan. O'g'lini voyaga yetkazgan, tarbiya bergan, o'qitgan...

Beva ayolning boshidan o'tganlarni tasavvur qilsak, u qilgan ishlarni bir joyga yig'sak katta va muhim voqealar tizmasi vujudga keladi va ayolning jasoratiga qoyil qolamiz. Shtrixlar bilan berilgan bu ma'lumotlar bir romanga arzigulik material berishi aniq. Biroq yozuvchi hikoyada bu materiallarning tafsiloti bilan tanishtirib o'tirmaydi, bular so'z orasida aytilib o'tiladi, yoki ularning biror qismiga imo qilinadi, xolos. Qolganlarini biz his qilamiz, shu bilan "arzimas" voqeani o'zimiz to'ldiramiz, hikoyada berilmagan voqealarni ham hayolimizda to'qiyamiz. Arzimas voqea arziydigan voqeaga aylanadi hikoyada mana shu biz "to'qigan" voqealarning qaymog'i hulosasi beriladi. Yozuvchilikning san'ati ham shunda.

Voqealarning bir qismini yashirish boshqa janrlarga ham xos emasmikin, degan savol tug'ulishi mumkin. Beistisno boshqa janrlarga ham xos. Bu jihatdan hikoyadan keyin drama xarakterli bo'lishi mumkin, keyin povest, romon tursa kerak. Voqealarning tafsiloti jihatidan eng tor janr hikoya bo'lsa kerak.

Qizig'i shundaki, olingan voqea qancha ma'no bersa, yashiringan voqea shuncha, balki undan ko'piroq ma'no beradi. Aslida, "san'at asarida ma'no

yashirin bo‘lishi kerak” degan gap ham asarning ma’lum bir qismlarining yashirin holda berilishi bilan bo‘g‘liq. “Anor”-dagi voqeaning faqat o‘zini, uning negizida beriladigan boshqa holatlardan ajralgan tarzda oladigan bo‘sak, yoki “Qo‘llar” hikoyasidagi shtrihlar bilan aytib o‘tilgan voqealarni nazarda tutmaydigan bo‘lsak, bu hikoyalar mazmuman shu darajada kambag‘allashar edilarki, biz ulardan ruhiy ozuqa ola olmasdik.

O‘z davrida ijod qilgan yozuchilardan L.A.Avilovanning bir hikoyasi haqida taassurotni aytib A.P.Chexov shunday deb yozadi: “Gap nom qo‘yish”ga kelganda aytish kerakki, bu hikoya emas, balki keraksiz tafsilotlar bilan to‘lib – toshib ketgan bir narsa. Siz bir olam tafsilotlarni yig‘ib katta to‘g‘ yasabsiz. Bu tog‘ quyoshni to‘sib turibdi...”<sup>1</sup>. Xatning davomida A.P. Chexov bu materiallardan katta bir povest yaratish mumkinligini, yoki bo‘lmasa “quyoshni to‘sib turgan” tafsilotlarni kamaytib hikoya yaratish mumkin ekanligini aytadi.

A.P. Chexovning xatidan shu narsa ayon bo‘layptiki, A. Avilova hikoya janriga xos bo‘lmagan tafsilotlar, ya’ni “Anor” va “Qollar” dagi biz faraz qilib, kengaytirib tushunushimiz, yoki ta’rif qilib o‘zim topib, to‘qib olgan voqealarga o‘xshagan tafsilotlarni, balki tajribasizlikdanmi, balki mahoratni zaiflikdanmi, hikoyaga kirita bergan. Natijada asarda mavjud bo‘lish kerak bo‘lgan bosh voqea o‘sha tafsilotlar soyasida qolib ketganda, yozuvchining nima demoqchi ekanini kitobxon anglab olish qiyin bo‘lib qolgan, xullas, badiiy asar emas, balki ko‘pgina tafsilotlar yig‘imidan iborat bir narsa bo‘lib qolgan. A.P. Chexovning qariyb har bir xatida, har bir maqolasida shunga o‘xshagan so‘zlarni, maslahatlarni o‘qish mumkin.

A.P. Chexov hikoyalaridan biriga murojaat qilaylik. Biz bu yerda mazmun jihatdan Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasini eslatadigan bir asarni tanlashni ma’qul ko‘ramiz. Bu uning “Kulfat” nomli hikoyasidir.

Temirchi usta kasal bo‘lib qolgan xotinini aravaga ortib doktorga ketayotibdi. O‘z-o‘zicha yo‘l azobi-yu, borganda doktor bilan qiladigan muammolari haqida ming‘irlab qo‘yadi. Bir qarasa kampiri o‘lib qolibdi, darrov aravani ketiga qaytaradi. Kampirni ko‘mish haqida o‘ylab ketib, uyqu bosadi. Ot

aravani uyga olib keladi. Ertasi ko‘zini ochib qo‘l-oyoq ishdan chiqqanini va yonida doktorni ko‘radi.

## **II BOB. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA ABDULLA QAHHOR**

### **ASARLARINI O‘QITISH USULLARI HAQIDA**

#### **2.1. Abdulla Qahhor asarlarini o‘qitishning zamonaviy usullari**

Ta’limni tashkil etish va yo‘lga qo‘yish borasidagi o‘zgarishlar keyingi yillarda dunyo miqyosida tobora keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarni yuzaga keltirdi. **Interaktiv usullar erkin fikrlaydigan, mustaqil izlanadigan o‘quvchilarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan e‘tiborga loyiqdir.** Ta’lim berishning bu usulida o‘qitish jarayonidagi asosiy ish o‘quvchilar tomonidan amalga oshirilishi, ular ta’limning ob’ekti emas, balki sub’ekti, ya’ni xuddi o‘qituvchi singari ijrochisi bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Interfaol metodlarning asosida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatigina emas, balki ta’lim olayotgan har bir o‘quvchi bilan boshqa o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda didaktik faoliyat ko‘rsatishi turadi. **“Interfaol” atamasi lotincha “inter akt” so‘z birikmasidan olingan bo‘lib, “inter” – o‘zaro, birgalikda va “akt” – faoliyat ma’nolarini anglatadi<sup>1</sup>.** Demak, interfaol metodlar ta’lim mazmunining to‘liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishlarini tashkil etishni ko‘zda tutadi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligi, erkin fikrlashi, mustaqil izlanishi, o‘zlashtiriladigan ma’lumotlarga ijodiy yondashishiga tayanadi.

Interfaol metodlar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bitta o‘quvchining faolligiga asoslanadi. Bu metodlardan foydalanilganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. **Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qitilmaydi, balki ularning o‘zlari o‘qituvchi bilan birgalikda muayyan yo‘nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishadi.** Bu hol bolalarda erkin fikrlash, mustaqil izlanishga rag‘bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta’lim jarayoni qatnashchilari o‘zaro bemalol tortishadilar, o‘quv materialini buyurilganiday emas, balki o‘zlari xohlaganiday erkin o‘zlashtiradilar. Shuni

---

Ishmuhamedov R va b. «Ta’limda innovatsion texnologiyalar» T.2008.15-bet

alohida ta'kidlash kerakki, **interaktiv metodlarning eng asosiy belgilari: o'quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga urinishlari va ta'lim jarayoni qatnashchilarining, albatta, kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashlaridir.** O'quv topshiriqlarining alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga berilishi o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi. Bugungi kunda sinf xonalariga kichik guruhlarida ishlash bo'yicha o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan mazkur qoidalarni joylashtirish va o'quvchilarni ularga amal qilishga o'rgatish lozim.

#### **Guruhlarda ishlash qoidasi:**

- Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
- Guruh ishlarida faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
- Agar yordam kerak bo'lsa, albatta, murojaat qiling.
- Agar yordam kerak bo'lsa, albatta, yordam bering.
- Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda barcha ishtirok etishi shart.

#### ***Aniq bilmog'imiz lozim:***

- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz.
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

#### ***“Muammoli o'qitish” usuli***

O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim jarayonida salmoqli o'rin egallagan muammoli (aqliy hujum) dars, munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikrlash) darslari muammoli ta'lim texnologiyalariga misol bo'ladi.

Mazkur darslarning o'ziga hos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchilarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosq'chlarida: **yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda** muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidaga masalalarni hal qilishi lozim:

1. O'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;
2. Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik printsiplariga amal qilishi;
3. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va bosh qarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchilar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga

erishish, o'q'uvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

O'q'uvchilarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, tahminlarni ilgari surish, tahminlarni ilmiy, mantiqiy nu nuqtai nazardan asoslash, tahminlarni tekshirish va hulosa chi qarishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi:

- o'quv muammolarni hal etishda o'quvchilar tomonidan avval o'zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo'llab, yangi bilimlarni egallash ko'nikmalarini;
- bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va amalda qo'llanish malakalarini;
- izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli darslarni keyingi yillarda yangi nom bilan («Tafakkur bo'roni» B. R. Qodirov), («Miyaga hujum», «Fikrlar to'qnashuvi», «Fikrlar jangi maydoni» V. M. Karimova, F. A. Akramova), («A q'liy hujum» J. G'. Yo'ldoshev) atash rasm bo'ldi.

**Muammoli - qidiruv uslublari** muammoli ta'lim jarayonida qo'llaniladi. Bu uslublardan foydalanishda o'qituvchi (pedagog), avvalo, muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni echishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to'g'riligini tasdiqlaydi. O'quvchilar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'grisidagi takliflarini aytadi, oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi, hodisalarning sabablarini aniqlaydi, ularning kelib chiqishini tushuntiradi, muammoli vaziyatni echishning eng oqilona variantini tanlaydi. Bu uslub o'quvchilarning bilimga qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Ta'limning muammoli-qidiruv uslublari amalda bilimni **so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot uslublari** yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda o'quv materialini muammoli bayon qilish uslubini qo'llash, amaliy muammoli - qidiruv ishlarini bajarish, hatto tadqiqot tipidagi amallarni olib borish to'g'risida so'z yuritish mumkin.

O'quv materialini muammoli uslub yordamida o'tish muammoli tuzilgan ma'ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil qilish, o'quvchi fikrini o'z ortidan ergashtirish, uni faolroq q'lish kabi usullardan foydalanshini ko'zda tutadi.

### «Aqliy hujum» texnologiyasi

Ta'lim-tarbiya jarayoniga «interfaktiv metodlar» nomi bilan kirib kelayotgan metodlardan biri **aqliy hujumning** maqsadi o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan ozod qilish, ma'lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to'plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. **Aqliy hujum**-o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi.

Aqliy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. O'ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar bu jarayondagi g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar moddiy manfaatdorlik yo'lga tushadilar va o'z fikr-g'oyalarini himoya qilishga urg'u beradilar. Yangi fikrlar, yangicha kashfiyotlar xususida o'ylamay qo'yadilar.

2. Har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan xilma-xil mulohazalar yuritishga yo'naltiriladi. O'quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar o'z fikrlarini qayta qo'llashga bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.

3. G'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdordagi g'oyalar paydo bo'lganda ularni baholash mumkin.

Qatnashchilarning o'z tasavvurlariga erk berishiga imkoniyat yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi.

4. Har bir o'quvchi o'z g'ozalar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki, fikrdan fikr tug'iladi. Avval taklif etilgan g'oyalarni

biriktirish yoki o'zgartirish ko'pincha asos bo'lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi.

Aqliy hujumdan foydalanish shartlari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar erkin o'tiradigan qilib joylashtiriladi.
2. O'quvchilarning g'oya va fikrlarini yozish uchun varaqlar tayyorlab qo'yiladi.
3. Hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi.
4. Ish jarayoni belgilab olinib, o'qituvchi «Ilg'ab oling, g'oyalarga asoslaning, qo'shing, kengaytiring, o'zgartiring» kabi luqmalar orqali bahs - munozarani boshqarib turadi.
5. Qo'yilgan muammo yuzasidan barcha fikrlar tinglanadi va yozib boriladi.
6. O'zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlarga aslo yo'l qo'yilmaydi.
7. Varaqlar g'oya va fikrlar bilan to'lganda ular ko'rinarli yerga osib qo'yiladi.
8. G'oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi.
9. Barcha fikr va g'oyalar tinglangach, yangi, kuchli, asosli va original g'oyalar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi, baholanadi.

Adibning «Bemor», «Anor», «Dahshat», «O'g'ri» singari asarlarida ham «O'tmishdan ertaklar » qissasidagi singari ozbek xalqining o'tmishdagi hayoti tasvirlanadi. Lekin mazkur hikoyalarda adib aslida hayotda ro'y bermagan, ammo real hayot haqiqatiga zid kelmaydigan voqealarni o'zi ijod qilgan. Mazkur hikoyalarda adib tomonidan qo'llangan detallar, so'z tanlash usullari, yozuvchining Chexovga xos uslubi kabilar haqida maqolalar va tadqiqotlarda mulohazalar aytilgan. Biz e'tibor qaratmoqchi bo'lgan jihat shundaki, yozuvchi hayotda kamdan-kam uchraydigan voqeani, favqulotda o'ziga xos notipik hodisani «Dahshat»da tasvirlaydi. Dodxonining Unsinga g'ayri oddiy shart qo'yishi - qop-qorong'u tunda qabristonda choy qaynatib kelish (qabristonda olov yoqib, choy qaynatish! Choy qaynaguncha vaqtning o'tishi-!) kitobxon ko'z oldida yaqqol namoyon bo'ladi va dastlab bunga ishonqiramayotgan bo'lsa-da, so'ng haqiqatda bunday voqea bolishi

mumkinkigiga amin bo‘ladi. Chunki dodxodek zolim odamning qiyofasi, xarakteri hikoyada bir-ikki ishora va jumladaypoq yozuvchi tomonidan mahorat ila ochib berilgan.

## **2.2. Umumta’lim maktablarida Abdulla Qahhor asarlarini o‘qitish usullarining axloqiy-ma’rifiy, ma’naviy – tarbiyaviy ahamiyati**

Hayotda kamdan-kam uchraydigan lavhalarni asarlariga asos qilib olishning boisi adibning uslubi bo‘lsa, ikkinchi tomondan uning xarakterida hayotda ham o‘ziga xos takrorlanmas narsalarni ma’qul ko‘rganligidan deb izohlash mumkin. Yozuvchining turmush o‘rtog‘i Kibriyo Qahharovanning esdaliklaridan bunga ko‘plab misollar toppish mumkin. Abdulla Qahhor hayotda ham xuddi hikoyalaridagi singari ohori to‘kilmagan, tesha tegmagan, obrazli gaplarni qo‘llagan, o‘zi shunday so‘zlarni eshitib qolsayon daftariga yozib yurgan. Hatto, Kibriyo Qahharovanning keltirishicha, uning vafoti oklidan aytgan so‘nggi so‘zi “Gapa muxtasar kuned” (“Gapni qisqa qilish krerak”) bo‘lgan. Bu adibning, ta’br joiz bo‘lsa, shaxs sifatidagi o‘ziga xos prinsipi va yozuvchilikdagi uslubi deyish mumkin.

Abdulla Qahhor faqat o‘ziga xos tarzda ijod qiluvchi yozuvchidir. U o‘z asarlarida milliy- umuminsoniy qadriyatlar: zamondoshlari ma’naviy dunyosi, ruhiy go‘zalligi, vatanparvarlik, otalar va bolalar munosabati, mehr oqibat kabi tuyg‘ularning teran badiiy ifidasini batakror tarzda namoyon qiladi. Uning asarlari qaysi mavzuda, nima haqida yozilganligidan qat’iy nazar, undagi milliy ruh, oddiylik kitobxonni ezgulik ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Abdulla Qahhor 1943 yilda yozilgan “Asror bobo” hikoyasining mavzusi urush yillarida qishloqda choyxonachilik qilib yurgan qariya, oddiy o‘zbek oilasi – bir chol va uning kampiri turmushidan tanlaydi.

Asror boboda ham o‘zbek xalqining mintalitetiga xos donishmandlik, bolajonlik, hazilkashlik, o‘z oilasiga yuksak hurmat ba samimiylilik xislatlari mujassam. U kampiriga qalbini o‘rtab yurgan og‘ir musibat- o‘g‘lining jangda halok bo‘lganini aytmay, yashirib yuradi. Bu musibatning hamma dard-alamiga o‘z qalbini titib bersa-da, kampirini ayab, unga hazil- mutoyiba qilishni qo‘ymaydi.

Dastlab o'g'lini sog'ingan kampir yig'lab cholga tinchlik bermaydi. Shunda Asror bobo kampiriga do'q uradi, hazilga oladi. Nihoyat bo'lmagach ta'na qiladi... Qirg'inbarot urush mavzusini birgina oddiy o'zbek oilasi hayoti, qishloq choyxonachisi, chol-kampir munosabatlaridagi milliy o'ziga xoslik bilan tasvirlashni badiiy ijod mo'jizasi, qahhorona mahorat ifodasi deyish mumkin.

Fikrimizcha, har bir kitobxon, har bir yozuvchining asar yozishdan avval oldiga qo'ygan birinchi galdagi maqsadi ham adabiyotning "atomdan kuchli"ligini ta'minlab turuvchi ko'ngil gavhari- so'zdan samarali va o'z o'rnida foydalanib, bir-biridan go'zal va real qahramonlar yaratishdir.

Abdulla Qahhor hikoyalarida hayot va o'lim talqini

Buyuk hikoynavis Abdulla Qahhor mahorati u yaratgan har bir timsolda, har bir detalda namoyon bo'ladi. Adib ijodida hayot va o'lim tushinchalari o'ziga xos tarzda talqin qilinadi.

Abdulla Qahhornong "Ming bir jon", "Mahalla", "Bemor", "To'yda aza", "Dahshat" kabi hikoyalarida o'lim sahnalarini uchratamiz. Bu hikoyalar mavzu jihatdan esa chuqur, shu bois har bir hikoyadagi o'lim sahnasi turlicha berilgan. Masalan, "Mahalla" hikoyasidagi o'lim shu qadar soda tasvirlangan bo'lib, qahramon oson va shunchaki vafot etadi. Lekin bu voqea qahramonning yaqinlariga og'ir va uzoq ta'sir ko'rsatadi. Bu o'lim sahnasi hikoya boshida keltirilib, keyingi voqealarga turtki beruvchi, asos bo'luvchi hodisa vazifasini bajaradi. Asarda adib o'lgan insonning ortidan o'lib bo'lmasligini, uni qanchalik yaxshi ko'rmasin, unga suyanmasin, usiz hayotni tasavvur qila olmasa ham ruhiy tushkunlikka tushmasligi zarurligi boshqa mehribon, oqil insonlar yordamida hayotning naqadar go'zal va aziz ekanligini anglab etishi va yashashda davom etishi kerakligini to'la holda aks ettirib bergan.

«Bemor» hikoyasida buning aksi. Unda qahramonning hayotni tark etishi asar echimi sifatida berilgan. Bu hikoya eng qayg'uli hikoyadir. Chinki undagi o'limga qadar bo'lgan voqealar o'quvchining his-tuyg'ulariga qattiq ta'sir o'tkazib, inson qalbida achinish hissini uyg'otadi. Bu achinish birgina vafot etgan kishigagina

emas, uning o'limidan iztirob chekishi mumkin bo'lgan kishigagina emas, uning o'limidan iztirob chekatishi mumkin bo'lgan boshqa insonlarga ham qaratilgan. Bu hikoyadagi o'lim chinakam fojea sifatida berilgan.

«To'yda aza» hikoyasidagi hayota va o'lim talqini o'zgacha ma'no kasb etgan. Unda insonning chin vafotia uning jisman vafoti emas, balki kishilar qalbidagi o'z o'rnini yo'qotib, atrofdagilar nasaridan qolishi ekanligi tasvirlangan. Inson uchun haqiqiy o'lim unga nisbatan atrofdagi odamlarning hech qanday e'tibor va mehri yo'qligidir. Bu hikoyada insondagi yaxshi fazilatlarning zavol topishi uning odamlar qalbidagi ma'naviy o'limiga sabab bo'lishini ko'ramiz. «To'yda aza» hikoyasida bir narsaninigi intihosi boshqa bir narsaninigi ibtidosi bo'lishini tushunamiz. Asarda yo'qotilgan narsa oldida topilgan narsaning hech qanday qiymati yo'qligi yorritilgan. Hikoyadagi «to'y» hamma uchun birdek kutilmagan voqea, quvonchli hodisa emas, balki ba'zi insonlar uchun «aza» bo'lib tuyilgan. Asar o'quvchini chuqur o'yga toldira oladi.

Yozuvchining yana bir hikoyasida hayotning shirin va totli, aziz va muqaddas ekanligi, barcha insonlar hech qachon va hech vaqt hayotdan umid va ilinjlarni uza olmasliklari ko'rsatilgan. «Ming bir jon» hikoyasidagi qahramon o'lim va hayot chegarasida tursa-da, hayot tomon intiladi. U yashash uchun kurashda o'ziga tog'dek kuch, mustahkam iroda topa oladi. Har bir ishning, har bir harakatini hayot tomon yo'naltira oladi. Qahramon sadoqat, vafo va ishonch yordamida hayotga qaytadi. Bu hikoyadagi o'lim hech kimning xayoliga kelmagan inson boshiga tushadi. Bundan esa taqdir kutilmagan ekanligini anglaymiz.

Adibning noyob mazmunda yozilgan, o'zida dahshatli o'lim sahnasini singdirilgan asari bu «Dahshat» hikoyasidir. Hikoya ijtimoiy muammolardan tashqari boshqa ko'p xususiyatlarni ham qamrab oladi. Abdulla Qahhorning bu asari hech bir qolipga sig'maydigan tasvirlar orqali ifodalangan. Biz hikoya orqali hayotga o'ta hirs qo'ygan, o'lim haqida hatto o'lashga ham qo'rqadigan, o'limni eslatuvchi narsalardan hamisha ko'z yumivcho insonlar borligini bilib olamiz. Asarda hayot jilvasiga boshqa tomondan nazar tashlashga, hayotni erkin va sokin

kuzatishga orzumand bo'lgan va bu yo'lda o'z jonini ham qurbon qilgan ayol obrazini ham ko'ramiz. Hayotda shunday vaqtlar ham bo'lar ekanki, unda inson tirik odamlar orasida bo'la turib o'zida qabristonda turgandan og'irroq qo'rquv va iztirobni his etar ekan. «Dahshat» hikoyasida o'lim va hayot o'rtasida tutash nuqtalar aks etgan. Qahramonning dunyodan ko'z yumishi ayanchli va alamli asar echimidir.

Yuqoridagi hikoyalarda hayot va o'lim talqini bir necha jihatlar orqali birikib turadi. Ya'ni o'lim hech qachon kishilarga quvonch olib kelmaydi. U kishilarga kutilmagan holat va vaqtda tashrif buyiradi. Hayot esa insonlar uchun berilgan oily ne'mat ekanligini Abdulla Qahhor hikoyalari yana bir bor tasdiqlaydi.

Obraz yaratish mahorati

O'z ijod mahsulini haqiqiy san'at darajasiga ko'tarish qo'liga qalam olgan va ulug' cho'qqilar sari intilgan har bir yozuvchining maqsadidir. Bu masala maqsadga erishish esa adibdan yuksak mahoratni talad qiladi. Mahoratning muhim qirralaridan biri esa obraz yaratish san'atidir.

O'zbek hikoyachiligining cho'qqilaridan biri hisoblangan "Anor" hikoyasida, Abdulla Qahhorning obraz yaratish mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. O'tmish voqealaridan xabar beruvchi bu asarda boshqorong'i xotiniga ikki dona anor topib bera olmagan Turobjon va "birdan- bir orzusi- anor" bo'lib qolgan ayol obrazlari san'atkorona yaratilgan.

Abdulla Qahhor kambag'al insonlar obrazini yaratar ekan, qahramonlarning harakati, gap-so'zlari, o'y xayollaridagi har bir ikir-chikirga, har bir detalga ma'no yuklaydi

Yozuvchining mahorati shundaki, qahramonlardagi holatni tasvirlarkan, o'quvchi shubhalanmasligi uchun asar davomida uni voqelikka tayyorlab boradi. Abdulla Qahhor qahramonlarini shu qadar qashshoq tasvirleydiki, Turobjonning boshqorong'i xotiniga ikki dona anor topib bera olmasligi mumkinligiga shudha qilmaysan kishi.

Asardagi boshqorong'i ayol obrazi ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Abdulla Qahhor hikoyani yozishdan bir necha yillar oldin yon daftariga boshqorong' xotin haqida shunday yozib qo'ygan.: "Er xotiniga jannatning ta'rifini

qiladi. Xotinning ko‘ziga havzikavsar va unda suzib yurgan baliqdan boshqa hech narsa ko‘rinmaydi. Xotin baliqqa boshqorong‘i”.

Boshqorong‘i xotinning ahvolini faqatgina boshqorong‘i xotin tushunishi mumkinligi haqida yozuvchining o‘zi aytib o‘tgan. Lekin asarni o‘qish davomida o‘quvchi ham bu holatni tushuna boshlaydi. Muallif shunday yozadi: “Olamda uning suyangani eri, birdan-bir orzusi –anor edi”. Ko‘rib turganingizdek ayolning olamdagi bor budi eri va anor orzusi bo‘lib qolgan. Bu tushunchalar tarozining ikki palasiga teng munosabatda qo‘yilmoqda. Demakki, ayol boshqorong‘i bo‘larkan, u o‘zi istagan narsani olamdagi barcha narsalardan ustun qo‘yishi mumkinligiga o‘quvchi shubha qilmaydi.

Ayol anor ko‘yida shu darajada yonyaptiki, fig‘oni falakka chiqqan erining dahshatidan ham cho‘chimay qolgan. U erining “O‘tgan bozor kuni egan anoringni o‘ynashing olib kelgan edimi?!” degan savoliga o‘ylab o‘tirmay “O‘ynashim olib kelgan. Shu bilan birga hikoyada bor yo‘g‘i ikkitagina inson obrazini mahorat bilan yaratish orqali maishiy hayotning bir parchasini jonlantirarkan, yozuvchi katta ijtimoiy umumlashmalar chiqarishga erishadi.

«Asror bobo» hikoyasi haqida

Abdulla Qahhor XX asr o‘zbek adabiyotining etuk namoyandaligidan biridir. Uning hajmi jihatidan kichik do‘lsa-da, o‘zida bir olam ma‘no ifodalaydigan hikoya va qissalari har bir kitobxonga ma‘lum va mashhur. Adib asarlarining kompozitsiyasi juda mukammal ishlangan.

Asror bobo – yuksak mehr- muhabbatning yorqin ifodasi. U asarning bosh g‘oyasini, ya‘ni mehr-muhabbatni ifodalash uchun asosiy vosita. Shu bilan bitga sirni qalbining tudida saqlay oladigan va qalbidagi mehr-muhabbatni cheksiz bo‘lsa-da, uni yaqinlariga izhor etmaydigan, kamtar inson obrazi.

Asror bobo atrofidagi obrazlar, kampir - o‘g‘lini, oilasini juda sevadigan, ularni sog‘inadigan, o‘g‘lidan kelishi mumkin bo‘lgan xatlarni orziqib, zoriqib kutadigan, turmush o‘rtog‘ini asrab-avaylaydigan, mehr-muhabbati to‘lib-toshgan haqiqiy o‘zbek ayoli timsoli. Urushdagi o‘g‘lidan kelgan qora xatdan kampir ham xabardor bo‘ladi. Bu haqda u Haydar otaga og‘iz ochadi. Lekin bundan Asror boboning xabar topishini istamaydi. Ming afsuski, Asror bobo bu sirdan xabardor.

U ham bu sirni kampiridan yashirib yuribdi. Demak yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, kampir ham Asror bobo kabi mehr-muhabbatning mukammal ifodasi.

Haydar ota Asror boboning o'tmishidan xabardor, unga qadrdon va shu bilan Asror bobo va kampir o'rtasidagi tarozi. U har ikki tarafga ham bir xil tosh bosadi.. Aks holda biladiki, ular bir-birining siridan voqif bolsa, g'amlari yanada ortadi.. Haydar ota obraziga yuklangan vazifani adibning o'zi bajarishi ham mumkin edi. Lekin bunda adib o'z ijodiy niyatini to'liq bajara olmasdi. Ya'ni asar hozirgichalik jonli, ta'sirli bo'la olmas edi.

«Asror bobo». Hikoyaning nomi nega aynan ana shunday? Ushbu nom bejiz qo'yilmaganday. Chunki bu nom bejiz qo'yilmaganday. Chunki, asror-sir va shu bilan birga Asror bobo sir saqlash orqali kampiriga bolgan mehr-muhabbatini ifoda etadi. Shundan kelib chiqib asarni "Asror bobo" deb nom olgan deyish mumkin. Bundan ko'rinid turibdiki, asar bosh g'oyasining ifodasi sarlavhasidayoq aks etgan. Bu adibning naqadar iste'dod egasi ekanligini anglatadi.

#### Hayotga muhabbat

«Ming bir jon»ni qayta-qayta o'qiganing sari qalbingda zo'r hayajon qo'zg'aydigan, kuchingga kuch qo'shadigan, insonga hurmatingni oshiradigan hikoya. Bu hikoyani o'limlarni eng oladigan inson qudratiga, irodasiga madhiya, deyish mumkin. Bu hikoyani yozishda Abdulla Qahhor hayotiy fakt turtki turtki bergan va oddiy faktni juda katta badiiy umumlashma darajasiga ko'targan. Hikoya qahramoni Mastura o'n yildan beri kasalxonada og'ir kasal. Sakkiz oydan beri kasalxonada yotadi, tomog'idan ovqat o'tmaydi, ovqatni qorniga quyishadi, buning ustiga qornida tez-tez suv to'planadi. Masturaning ahvoli shunchalikki, uni ko'rgan uncha-muncha sog'lar qo'rquvdan qotib qolishi mumkin. Mastura o'n yillik azobni engadi, og'ir operatsiyadan omon chiqadi va sog'ayib ketadi. Unga o'n yillik bardosh va iroda bergan, o'limning yuziga pisand qilmay tik qarashga quvvat bergan kuch nima? Bu kuch, birinchidan, odamlarning mehri, vafosi, oqibati. Akromjon o'n yil davomida xasta xotining yonidan bir qadam ham jilmaydi, o'n yil davomida odamlar Masturani yolg'iz qoldirmaydi. Ikkinchidan, Masturaning yashash istagi, hayotga muhabbati uni hayotga qaytaradi. U o'limdan qo'rqmaydi,

uni mensimaslikka intiladi. “men hech qachon o’lim kutgan emasman, kutmayman ham!” deydi u. Mana shu ishinch, yashashga bo’lgan ishtiyoqi tufayli u tirik murdaday og’ir yotganiga qaramay, hazillashadi, kuladi, askiya qiladi.

«Bemor» dagi Sotiboldining xotinini eslang, uni Masturaga taqqoslang. Biri-tilsiz, notavon qurbon, ikkinchisi - o’limlarni engadigan ming bir jon egasi. Biri taqdiriga tan bergan, ikkinchisi taqdirni istagan tomonga bura oladigan, o’z hayotining xo’jayini bo’lgan inson. Shu ikki qahramon misolida o’zbek ayolining keyingi davrda nechog’lik yuksaklikka ko’tarilgani yorqin ko’rinadi.

Abdulla Qahorning ayrim hikoyalari personajlari o’zlarining biror xatti – harakati, qiliqlari yoki gap-so’zlari orqali hajv ostiga olinadi.

Yozuvchi ba’zi qahramonlarning kulgili tomonlarini ochib berishda hikoya syujetiga, voqealar rivojiga ko’proq e’tibor bersa, ba’zan esa buning aksini kuzatamiz- syujet ikkinchi darajali unsurga aylanadi. Adibning «Boshsiz odam» hikoyasida Faxriddin obrazi kulgu ostiga olingan. Yozuvchi uni shunday go’l, landavur, farosatsiz qilib tasvirlaganki, beixtiyor uning xatti-harakatlaridan kulasiz.

Adibning «San’atkor», «Adabiyot muallimi», «O’jar» hikoyalarida esda qoladigan arziqli voqealar sodir bo’lmaydi. Lekin ularni o’qib biron ma’no topgandek bo’lamiz. «Adabiyot muallimi»da Boqijon Baqoyev, «San’atkor» da san’atkor o’zlarining fikrlari, qarashlari gap-so’zlari orqali fosh bo’ladilar. Yozuvchi kulgi vositasida jamiyatdagi shunday kishilarni qoralaydi va badiiy umumlashmaga erishadi. Yoki “O’jar” hikoyasini kuzatsak, asar syujeti, asosan, Qutbiddinov va Zargarov o’rtasidagi suhbatdan iborat. Suyar ulardan farqli ravishda, birovlar ustidan kulishni, bilgan narsasi bilan maqtanishni, boshqalarni kamsitishni o’ziga odat qilmagan edi. Shu hulqi bilan bola ikkala “bilimdon”dan ansha baland turadi. Asarni shunday yakunlashdan yozuvchining maqsadi Suyarning o’rnak bo’larki xarakterini ochib berishdan iborat edi. Mohir hikoyanavis Abdulla Qahordan boshqa yozuvchi syujetni shunday tugallash orqali xarakterlarni yaqqol ko’rsatib berishning uddasidan chiqolmasdi. Bunday mahorat, menimcha, Abdulla Qahorgagina xosdir.

«Bek» hikoyasi

Abdulla Qahhorning o'zbek hikoyachiligiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Adib bu mo'jaz janrdan foydalana olishi, shu bilan birga, serqirra ijodkor ekanligi bilan o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirdi.

Ijodkorning "Bek" hikoyasi hajviy xarakterda yozilgan. Hikoyadagi bosh qahramon Bek o'z zamonasidan 20 yil orqada qolib ketgan va davrning yangi sharoitiga, muhitiga ko'nika olmaydigan, eski tuzumga moslashib qolib undan voz kechmayotgan, yangi muhitni tan olmaydigan komik xarakterdagi qahramon sifatida tasvirlanadi. O'sha davrda eski muhit sharoitidan chiqib ketolmagan insonlarni birgina Bek timsolida ochib bergan.

Adib "Boshsiz odam", "Qizlar" va "Mayiz emagan xotin" hikoyalarida hajviy xarakter yaratishda asosan, qahramonning portretiga va nutqiga e'tibor qaratadi. "Bek" hikoyasida qahramonning o'zini tutishi, xatti-harakati tasviri orqali kulgu tug'diradi.

Bek yig'ilishlarda so'zga ayol chiqquday bo'lsa, ayollarning gapiga luqma tashlab, ularning ismini kalaka qilib gapiradi. Shunda hamma kuladi. Aslida uning qiziqchilik qilayotganidan emas, balki unga achinganidan, ahvolidan Bekning ustidan kulishadi. Demak, Bek o'zining xatti-harakatlari bilan odamlarning kulgisiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor asarlarini, uning yozuvchi sifatidagi uslubini o'rganishda tarjimai holi, shaxsiyati, sajiyasi ham muhim o'rin tutadi.

### III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI.

#### 3.1. Mavzuni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

A.Qahhor asarlari umumta'lim maktablarining 6-sinfida "Bemor" hikoyasi 2 soat, 7-sinfida "O'g'ri", "Dahshat" hikoyalari 3 soat berilgan.

6-sinfida "Bemor" hikoyasi 2 soat berilgan.

#### BEMOR

Osmon yiroq, yer qattiq.

(Maqol)

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi-bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinning oldiga arzga bordi, ammo bu borishidan muddaosi nima ekanligini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

- Devonai Bahouddinga hech narsa ko'tardingmi? G'ovsula'zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi- har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U

ertadan kechgacha oftob shuvoqda gavronlar ichida ko‘mlib savat to‘qirdi. To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan qo‘riydi; ba‘zan qo‘lida ro‘molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin – yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi- „, Hey do‘st, shaydullo ba nomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo... “

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga birov solingan kishiday talvasag tushar edi. Qo‘shnisi – bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to‘zigan sochlarini tuzatdi, u yoq - bu yog‘ini siladi, so‘ngra... o‘tirib yig‘ladi.

- Begunoh go‘dakning saharda qilgan duosi ijobat bo‘ladi, uyg‘oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g‘ashligi bilan yig‘ladi, keyin otasining g‘azabidan, onasining ahvolidan qo‘rqib, kampir o‘rgatganicha duo qildi:

- Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan kun battar, oxiri o‘sal bo‘ldi. „, Ko‘ngliga armon bo‘lmasin “ deb, „, chilyosin “ ham qildirishga to‘g‘ri keldi. Sotiboldi to‘qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yogirma tanga qarz ko‘tardi. „, Chilyosin “ dan bemor tetik chiqqanday bo‘ldi; shu kechasi hatto ko‘zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

- Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg‘otmang.

Yana ko‘zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi- saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda, qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

- Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin....

**7-sinfda “O‘g‘ri”, “Dahshat” hikoyalari 3 soat berilgan.**

**O‘G‘RI.**

Otning o‘limi - itning bayrami.

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizdan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish uy, ho'kiz toppish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Kampir dod soldi. Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampining dodiga odam tez to'plandi.

Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi tovuqlar qaqag'laydi. Kimdir shunday kichkin teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.

Qobil boboning qo'shnisi – burunsiz ellikboshi kirdi. U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi, negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra qobil boboni chaqirdi va pang tovush bilan dedi:

- Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yog'lab yubordi.

- Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi ...

Odamlar o'g'ri devorini qachon va qanday asbob bilan teshganini, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha- bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo qo'l qovushtirib, uning ketidan yurar va yig'lar edi.

- Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizning oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi -- go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu „xudo yarlaqagur“ shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yeti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oliga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? **Berganga bitta ham ko'p olganga o'nta ham oz.** Chol – kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

- Ha, sigir yo'qoldimi?
- Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.
- Ho'kizmi? Ho'kiz ekan-da. Hmm... Ola ho'kiz? Tavba...
- Bor – yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

- Yo'qolmasdan oldin bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?
- Ola ho'kiz...
- Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?
- Qo'sh mahali...
- Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?
- Bisotimda hech narsa yo'q...
- O'zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lamasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

- Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib. – Suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapini Qobil boboga „Ma, ho'kizing“ , -- deganday bo'lib ketdi.

- Kam bo'lmang , -- dedi pulni uzatib, -- yana xizimatingizdaman.
- Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi.

Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir „duoning zo'ri bilan qulf ochadigan“ azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo'xori , ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo'ldi:

- Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir , borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!

Qobil bobo yor-do'stlar bilan kengashdi- pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kuruk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni , yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tishuntirishini va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa diya oladimi? „O'ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan“ , „Yaxshilab tushuntirilgan“ pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pul olganidan keyin Qobil boboning baxtiga: „Beto'xtov hokimga xabar beraman“,-demasdan: „Aminga bor“, -deb qo'ya qoldi. Amin : „Ellikboshiga borilsin“, -dedi.

-Gumoningizni ayting bo'lmasa ! --dedi ellikboshi tajang bo'lib. --Kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam ! Olgan odam allaqachon so'yib saramjomladi-da! Uzoq demasangiz , erinmasangiz ko'nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi; xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi...

- Endi bizga juda qiyin bo'ladi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa ... -dedi chol yerga qarab.

- Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, xudo ajalga to'zim bersin ! Men qaynotamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi-- Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerni haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin „kichkinagina“ sharti bor. bu shart kuzda ma'lum beradi...

### **DAHSHAT**

Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchakarga urib uf tortadi.

Bunday kechalarda odamzod qo'ymijoz, g'uj bo'lib va nimanidir kutib jimgina o'tirishni xohlab qoladi.

Olimbek dodxoning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yig'ilib, sandal atrofida o'tirishar edi. Dodxo har kecha taroveh namozidan keyin halqaga qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to'zidi: xotinlardan biri sallasini oldi, biri chakmoniga qo'l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog'landi... Kundoshlarning eng kichigi - bu dargohga tushganiga besh oygina bo'lgan kelincha-ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi. Dodxo chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib turgan xotinlariga e'tibor qilmay, to'rga o'tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko'zi bilan tashqariga qaradi. Shamol goh och bo'riday uvillar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar hech narsa - ko'rinmas edi.

Dodxo darchani zichlab yopdi, joyiga borib tasbeh o'girishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'girayotgan bo'lsa ham, qulog'i g'uvullayotgan shamolda, xayoli go'ristonda edi: „Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan...“

O'zbek go'ristoni o'zi xunuk, buning ustiga, go'riston haqida aytilmagan xunuk gap qolgan emas. Haqiqatdan, bunday kechalarda go'riston esga tushdan har qanday odam, ayniqsa, dodxo singari payg'ambar yoshidan oshib,

kafanligini sandiqqa solib qo‘ygan kishi o‘lishdan ham ko‘ra go‘ristonda yotishni o‘ylaganida tiligacha sovuq ter chiqaradi.

Dodxo go‘riston xayolini boshidan chiqarish uchun tasbehni qo‘yib undan - bundan gapigan bo‘ldi, lekin hech kim bu gaplarga gap ulamadi.

Shamol bir xuruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalaganicha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o‘tirgan yerida go‘yo bir qarich cho‘kkanday bo‘ldi va tim olmay bir-biriga qaradi. Dodxo xotinlariga, ulardan ham ko‘ra o‘ziga taskin berish uchun o‘rnidan turib, darchaning bir tomonini ochdi. Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatdi, tebratdi. Dodxo pastga qaradi va suyunib ketganday:

- Bo‘yra , bo‘yra ekan! – dedi va darchani zich yopib yana joyiga o‘tirdi. Bo‘yra odatda tobutga solinadigan bo‘lganidan dodxoning ko‘z oldiga odamlarning yelkasida lapanglab ketayotgan tobutni keltirdi. Tobut esa yana go‘ristonni eslatdi, go‘riston haqida bolaligidan qulog‘ida qolib ketgan vahimali gaplarni, hodisalarni jonlantirib yubordi. Dodxo bu hayollarni yengish uchun go‘riston vahimalaridan o‘zi so‘z ochdi va ikki og‘iz gapning birida o‘zining dovyurakligini, ulardan ham ko‘ra o‘ziga pisanda qila ketdi.

Gapdan gap chiqib Nodirmohbegim bir voqeani aytib berdi.

- Bola edim. Raxmatli dadam gap yer edilar. Bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. „Hozir kim go‘ristonga borib, Asqar Ponsotning go‘riga pichoq sanchib keladi? “ – degan gap bo‘lipti. Shunda bir kishi pichog‘ini qinidan sug‘urib : „ Men sanchib kelaman “, - deпти. Bitta qo‘ydan garov bog‘lashib yo‘lga tushibdi. Jo‘ralari hali kutishar emish – yo‘q, hali kutishar emish - yo‘q; tong otipti, uyida ham yo‘q emish; go‘ristonga borib qarashsa, Asqar ponsotning go‘ri oldida o‘lib yotgan emish! Bechora go‘rga pichoq sanchganida etagini qo‘shib sanchgan ekan, qaytay desa etagidan birov tortganday bo‘lgan-da...

Hammaning eti jivillashib ketdi. Uzoq jimlikdan keyin Unsin yonida o‘tirgan kundoshiga shivirlab:

- O'lsin, nokas odam ekan, bitta qo'yni deb... Koshki arziydigan narsa bo'lsa!...-dedi.

Bu gapni dodxo eshitib qoldi. Uning nafsoniyati qo'zg'adi. Dodxoday odam go'riston deganda tizzasi qaltirasa, birov „olamga podsho qilaman“ degan taqdirda ham bormasa, borolmasa-yu, bu qiz mushtday boshi bilan „arziydigan narsa bo'lsa men boraman“, - desa!

Dodxo g'ashi kelib unsunni masxara qildi:

- Obbo, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo'yni nazari ilmaydi! Nechta qo'y bo'lsa arzir edi? Sen o'zing o'nta qo'y bersam pichoq sanchib kelasanmi? Yuzta qo'y, davlatimning yarmini bersam borasanmi?

Unsinoy bozvantidagi tangalarni o'ynab:

- Menga davlat kerak emas, davlat kerak bo'lsa borar edim, - dedi.

Bu gap dodxoga tegib ketdi.

- Nima kerak?

Unsin indamadi. Dodxoning savoli javobsiz qolishi mumkin emas edi. Shuning uchun bittasi gunoh qilsa, hammasi barobar kaltak yeydigan kundoshlar unsinni turtkilashdi.

- Javob bersang-chi!

- Tildan qoldingmi?!

Yonida o'tirgan kundoshi biqiniga ikki – uch marta turtgandan keyin Unsin boshini ko'tarib, balo-qazoday tikilib turgan dodxoga bir ko'z tashladi-yu, yana boshini egib, lekin dadil javob berdi:

- Javob bersangiz ... Ganjiravonga ketsam... Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelaman... -dedi.

Uning maqsadini kundoshlar darrov fahmlashdi. Lekin dodxo bunday gapni sira kutmagani uchun yanglish tushundi.

- Tag'in nima qilasan Ganjiravonda, borib kelganinggga ikki oy ham bo'lgani yo'q-ku!

Nodirmohbegim sandal ichidan oyog'ini uzatib Unsinning boldirini chimchiladi, ko'zi bilan: „xayriyat tushunmadi, bas, gapirma“, - deb ishora qildi. Biroq Unsin jonidan kechgan kishining shijoati bilan dodxoga tik qaradi.

- Yo‘q, men butkul ketsam deyman, javobimni bersangiz demoqchiman.

Gapni aytgan Unsin-u, boshqalar o‘tirgan joyida yerga qapishib ketdi. Biroq dodxo hammaning kutganiga qarshi, qo‘liga qamchi olib Unsinni „ qayering qichidi “ ga solmadi, aksincha, zaxarxanda bilan bo‘lsa ham muloyim gapirdi:

- Shunaqami?.. Xo‘p

- Mayli, aytganing bo‘laqolsin – dedi va biroz o‘ylanib turib g‘ijinganini yashirolmay ilova qildi. – Lekin go‘ristonga pichoq emas, qumg‘on olib borasan. On hazratim sag‘anasi oldida qumg‘on qaynatib, bitta choy damlab kelasan, maylimi?

- Mayli, mayli! – dedi Unsin ko‘zlari javdirab, --lekin lavzingizdan qaytmaysiz...

Dodxonning dami ichiga tushib ketdi. Bir gadovachchaning bu dargohdan ketishga oshiqishi unga haqorat bo‘lib tushdi. Endi Unsinni tilab olish uchun biror so‘z aytishga hech kim, hatto go‘ristondan uning o‘ligi kelishiga ko‘zi yetib, ichida faryod chekayotgan Nodirmohbegim ham jur‘at qilolmay qoldi.

Dodxonning oppoq uzun soqoli, tovushi titradi.

- Xo‘p , lafzimdan qaytmayman , mana xotirjam bo‘laqol: men hozir seni bir taloq qo‘ydim, qaytib kelganingdan keyin uch taloqsan! Bor , qumg‘onni ko‘tar! ..

Unsin dodxodan darrov yuzini berkitganicha chiqib ketdi. Nodirmohbegim qo‘lidan boshqa ish kelmaganidan keyin, hech bo‘lmasa Unsinning yuragiga quvvat bo‘ladigan bir-ikki og‘iz so‘z aytish maqsadida ketidan chiqmoqchi bo‘lgan edi, dodxo bir xo‘mrayib joyiga o‘tqazib qo‘ydi. Kundoshlar bitta-bitta oyoq uchida yurib chiqib ketishdi.

Unsin uyiga kirdi, paranji chimmatini yopindi, qumg‘onga suv to‘ldirib, choynakka choy soldi-yu jo‘nadi.

Ko‘r oydin. Osmonning chekkasi sariq- kir uvadaga o‘xshaydi. Bu kir shu‘la qo‘ynida past-baland uylar, shamolda egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora ko‘rinadi. Pishqirayotgan har huruj qilganida Unsinni

tentiratar, talay joyga surib tashlar edi. Unsin paranji-chimmatini qo‘liga olgandan keyin yo‘l yurish osonroq bo‘ldi.

Go‘riston to‘g‘risida dodxo nimalar eshitgan bo‘lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi dodxo xayolida ham shunday daxshatli, lekin shundoq bo‘lsa ham, tiriklar go‘ristoni bo‘lgan bu dargoxning daxshati oldida o‘liklar go‘ristonining daxshati unga daxshat ko‘rinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga jo‘nash, ota-onasini, dugonalarini ko‘rish umidi uning boshiga hech qanday fikr hayolni yo‘latmas edi.

Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozor boshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga so‘z bermay, ba‘zan irg‘ishlab borar edi; biroq go‘riston ko‘chasiga burilib, salobat bilan tebranayotgan qop-qora chinor ostida oqarishib turgan sag‘analarni, belgisiz zulmatni ko‘rganda yuragi uvishdi-yu, zovur ko‘prigidan o‘tib, ikki qadam yurgancha to‘xtab qoldi. Daxshat uning yuragiga raxna soldi: Ganjiravon, ota-onasi, dugonalari hayolidan ko‘tarilib, ko‘z oldiga oppoq kafanga o‘ralib sag‘ana va go‘rlar atrofida yelib yurgan arvoxlar keldi. Uning eti jivirlashib, sochi boshidagi ro‘molini bir qarich ko‘targanday bo‘ldi. Unsin beixtiyor orqaga chekindi, lekin shu ondayoq xuddi o‘likdan qo‘rqmasligini birovga pisanda qilyotganday, baqirib: „O‘likning joni yo‘q, o‘likning joni yo‘q!“ – deb olg‘a intildi, shu yugurgancha chinor ostidagi On hazratim sag‘anasi oldida to‘xtadi; choynak bilan qumg‘onni oyog‘i ostiga qo‘ydi, paranji – chimmatini bir chekkaga tashladi, ichida: „Ko‘pi ketib ozi qoldi“ – deb suyundi biroq uning suyungani behuda edi: hamma narsani olibdi-yu, eng zaruri – o‘tin esidan chiqibdi! Har sag‘anadan bir qo‘l har go‘rdan bir tovush chiqishini kutib o‘tin qidirish vahimasi uning yuragiga yana raxna sola boshladi. Unsin o‘ziga –o‘zi baland tovush bilan yana: „o‘likning joni yo‘q!“ – dedi. Hozir diliga bitta odamchalik quvvat bo‘layotgan bu gapni og‘zidan qo‘ymay, sag‘ana va go‘rlarni oralab o‘tin qidirdi; paypaslanib qo‘liga ilingan narsani etagiga soldi, qamish sindirdi, yantoq, giyoh yuldi, qo‘llari qonab ketganini ham payqamay, topgan-tutganini keltirib o‘t yoqdi. O‘t charsillab-qirsillab bir pasda gurkiradi, shamolda to‘lg‘anayotgan tutun aralash alanganing qizg‘ish shu‘lasidan

qorong'ilik lipillab, uzoq- yaqinda do'ppayib turgan go'rlar, xuddi birov tuproqni ko'tarib chiqayotganday harakatga keldi.

Unsin yana o'tin qidirdi, lekin har safar o'tin qalaganda alanganing gurkirashi, chirsillashi mudrab yotgan arvohlarni uyg'otib yuborishidan qo'rqqandan uning ustiga o'zini tashlaguday bo'lardi. Nihoyat qumg'on qaynadi. Unsin naridan beri choy damladi, quruq yantoq va qamishlarga o't ketmasin uchun o'tni tepkilab o'chirdi; o'ng qo'lida choynak, chap qo'lida qumg'on, o'tning shu'lasidan ko'zi hanuz qamashib borar ekan, bir joyda yer o'pirilib, chap oyog'i taqimigacha botib ketdi va oyog'ining uchi yumshoq bir narsaga tekkanday bo'ldi. Unsin boyagi gapni duoday tez-tez qaytarib, qo'rquvni o'ziga yo'latmayotgan bo'lsa ham, ko'ngliga: „O'likning qornimikin?“ – degan gaplar keldi-yu, yuragi orziqib oyog'ini darrov sug'urib oldi va chuqurda qolgan bir poy kavushini olgani yurak qilolmay, mahsichan ketaverdi. Unsin bir necha qadam bosgandan keyin paranji-chimmati sag'ananing oldida qolganini eslab to'xtadi, lekin qaytib borgani botinolmadi, hozir qaytish emas, qayrilib qaragani ham yuragi dov bermas, nazarida hamma o'liklar sag'analardan, go'rlardan boshini chiqarib, ketidan qarab turganday edi.

Unsin nima qilishini bilmay turib qoldi. Shu asnoda kattakon bir sag'ananing ichidanmi, naryog'idanmi allaqanday bir tovush eshiyildi-yu, hayal o'tmay nimadir kelib Unsinning yelkasiga minib oldi, aftidan bo'g'moqchi bo'lib qo'l uzatdi. Unsin ko'kragiga nihoyatda og'ir bir narsa bilan urilganday ko'ngli ozib tentirab ketdi-yu, yiqilmadi, lekin oyoq uzra turib hushidan ketdi; oradan qancha vaqt o'tganini bilmadi, ko'zini ochib qarasa jonivor yelkasidan tushibdi, emaklab boyagi sag'ananing orqasiga o'tib ketdi. Unsin telba bir ahvolda bo'lsa ham fahmladi: maymun! Dodxoning maymuni! Maymunni dodxoning o'zi olib kelmagandir, birovdan berib yuborgan! Dunyoda dodxoday berahm odam yana bor ekanmi!

Unsin yelkasiga maymun mingan daqiqalarda naqadar qo'rqqan bo'lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotirjam bo'ldi: demak, qandoq berahm bo'lsa ham shu atrofda odam bor!

Unsin go‘ristondan chiqib, katta yo‘lga tushib oldi, yarim yo‘lga borganda chap qo‘liga qattiq og‘riq kirganini sezdi. Og‘riq qumg‘onni eslatdi. Chap qo‘lida qumg‘on bor edi, qani? Unsin bir to‘xtadi-yu, choynakni ikkala qo‘li bilan bag‘riga bosib, darmoni yetguncha jadalladi. Tushida yugurganday uning yo‘li ko‘paymas, ikki oyog‘i gavdasidan keyinda qolar, qo‘lidagi choynak tobora og‘irlashib borar edi.

Unsin Nodirmohbegimning og‘ir eshigini zo‘rg‘a ochdi, ostonadan o‘tib bir necha qadam bosgandan keyin holdan toyib cho‘kkaladi va ne mashaqqat bilan intilib, jo‘mragidan choy oqib bo‘g‘lanayotgan choynakni sandalning bir chekkasiga qo‘ydi, umirlik orzusi ushalganday, hordig‘i chiqib, o‘zini yerga tashladi. Sandalda o‘tirib pinakka ketgan dodxo uyg‘onib tamshandi, boshini ko‘tarib Unsinni ko‘rdi-yu,,jon berayotibdi“,deb o‘yladi shekilli, ko‘zlari olaydi, undan ko‘zini olmay sekin o‘rnidan turdi, xuddi o‘lim xafidan qochganday, bir irg‘ib sandaldan oshdi-da, o‘zini eshikka urdi...

Unsin hushidan ketgan ekan, bir vaqt ko‘zini ochib qarasa, sandalning chetida chalqancha yotibdi, tepasida Nodirmohbegim yig‘lab o‘tiribdi. Uning o‘ng ko‘zi mamataloq bo‘lib shishib ketgan, oq doka ro‘molining u yer-bu yeriga qon tekkan edi. Unsin Nodirmohbegimga ko‘zi tushgan zamoniundan dodxoning lafzi lafizmi ekanini so‘ramoqchi bo‘lib edi, uning ahvolini ko‘rib, eshilar – eshitilmas:

Sizga nima bo‘ldi?- dedi.

Nodirmohbegim Unsinning yosh joniga rahim qilishini, uni qaytarishni so‘rab dodxoga yolvorganida dodxo uni tutib olib xo‘p urgan edi. Nodirmohbegim Unsinning savoliga javob bermadi, tovush chiqarmay yana ham qattiqroq yig‘lab, uning boshini siladi, yuzini yuziga qo‘ydi; so‘ng o‘sha chog‘i odam yuborib go‘ristondan oldirgan ikki chimdim tuproqni yarim payola suvga chayib **Unsinga** tutdi.

-Ich, jigarim, qo‘rqqansan...Go‘ristonda qo‘rqqanga go‘ristonning tuprog‘i davobo‘ladi.

Unsin piyoladagi loyqa suvni darrov ichdi, xiyla yingil tortganday bo‘ldi.

-Mendan qaytmasa, xudodan qaytsin...Endi Ganjiravonga ketarmikanman?

-Ketasan,-dedi Nodirmohbegim yig‘lab,-o‘zingga kelgin, ketasan...

Unsinning chaqnab ketgan ko‘zlarida yosh yiltiradi.

-Men tuzukman...Peshingacha tuzalaman,jo‘nasam bo‘ladi...Ganjiravonga odam yuborsangiz... Ota-onam borishimni harna ertaroq eshitsa, harna ertaroq suyunsa...

Nodirmohbegim yana kaltaklashlaridan hayiqmay Ganjiravonga bir xizmatkorni yubordi.

Biroq Unsin peshingacha yetmadi-uzildi.

Shom qarong‘isida uning jasadini qizil ko‘rpaga o‘rab aravaga solishdi.Shamol hamon guvullar, yaydoq daraxtlarning shoxida chiyillar, g‘uvillar edi.

Darvozadan boshida paranji va qo‘lida oq tuguncha Nodirmohbegim chiqdi. U darvozaga yuzini o‘girib, cho‘nqaydi, ikki qo‘lini fotihaga ochib bir nimalar dedi. Dodxonning o‘zi bilan birga bu dargohni yerning qa‘riga yuborganday ikkala mushtini uch marta yerga qadadi; keyin „Bu dargohni endi yelkamning chuquri ko‘rsin“, - deganday bir harakat bilan keskin burilib, aravaga chiqdi,marhumaning bosh tomaniga o‘tirdi.

Arava jo‘nadi, shahar qo‘rg‘onidan chiqqanda kunduzi Nodirmohbegim yuborgan xizmatkor Ganjiravondan qaytib kelmoqda edi.

### **DAHSHAT hikoyasini o‘qitish usullari**

#### Savollar

1. Hikoya mazmunini o‘qish.
2. Asar haqida fikrlar.
3. Hikoyadan tasirlangan joylarinig?
4. Asar ahamiyati nimada?
5. Yozuvchi bu hikoyada qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
6. Asardan keltirilgan parchalarni izohlang?
7. Asar qahramonlari kimlar?
8. Dodxo timsoliga tavsif bering?
9. Unsun qanday obraz?
10. Nodirmohbegim qanday ishlarni bajardi va uni qanday obraz turiga kiritasiz? Dalillar

Bu savollarni ogʻzaki va yozma shakllarda dars oʻqitishning barcha turlarida foydalanish mumkin.

Jumladan, zanjirlar ketma-ketligi usulida oʻqitish usulida ham oʻqitish mumkin.

### **3.2. Abdulla Qahhor asarlarini o'rgatish bo'yicha dars ishlanmasi**

Ma'lumki, hozirgi kunda o'qitishning zamonaviy usullari ko'p bo'lib, har bir pedagog-xodim o'ziga ma'qul usullardan foydalanib dars o'tadi. Masalan, muammoli vaziyat, kichik guruhlarda ishlash, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma- ketligi, yozma va og'zaki davra suhbat, bumerang usuli, blits texnologiyasi, keys usuli va boshqa ko'plab o'qitish usullari mavjud. Har qanday o'qitish usuli negizida o'quvchilarga mavzuning mazmun va mohiyatini teran tushuntirish dolzarb vazifa qilib belgilanadi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, asarlar mazmunini hozirgi adabiy jarayon bilan bog'lash ham asosiy vazifalardan deb bilamiz. Shunday usullar yordamida o'quvchining o'ylash qobiliyatini shakllantiramiz va ularni tevarak-atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo'lishlariga erishamiz. Quyida A.Qahhor asarlarini o'qitish usullari haqidagi fikrlarimizni bayon qilganmiz.

#### **7-sinfda "O'g'ri" hikoyasini o'qitish usullari**

##### **MUAMMOLI VAZIYAT**

##### **Darsning tashkiliy qismidan keyin o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.**

Savollar

1.Asar qanday jumlar bilan boshlanadi?

**Javob:** Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizdan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish uy, ho'kiz toppish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

##### **2. Parcha mazmunini izohlang?**

Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish uy, ho'kiz toppish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

**Javob:** Sababi, dehqonning uyidan ham ho'kiz abzal. O'sha paytda dehqonlar oddoy xalqning yashash sharoitlarining yomon ahvolda ekanligini tasvirlash asar markazida turgan

3. Asardan keltirilgan parchada qanday mazmun va ma'noni anglash mumkin? Kechqurun Qobil bobo aminning oliga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? **Berganga bitta ham ko'p olganga o'nta ham oz.** Chol – kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

**Javob:** O'sha zamondagi amaldorlarning tor doiradagi fikrlashlari, oddiy xalqdan qanday qilib bo'lsa ham biron bir foyda o'zlashtirishlari kabi yaramas illatlarni fosh qilish asarda mohirona tasvirlangan.

#### **4. Otning o'limi - itning bayrami maqola mazmunini sharhlang?**

**Javob:** Asarda amaldorlarning qayerdan foyda kelar ekan degan qarashlari haqidagi munosabatlar badiiy bo'yoqlarda tasvirlangan...

#### **5. Oddiy xalq bilan yuqori tabaqa vakillarining suhbatidagi jarayondan qanday vaziyatni aniqlash mumkin?**

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

- Ha, sigir yo'qoldimi?
- Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.
- Ho'kizmi? Ho'kiz ekan-da. Hmm... Ola ho'kiz? Tavba...
- Bor – yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

- Yo'qolmasdan oldin bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?
- Ola ho'kiz...
- Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?
- Qo'sh mahali...
- Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?
- Bisotimda hech narsa yo'q...
- O'zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lamasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

- Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalog‘ini etigining ostiga artib. – Suyunchisi nima bo‘ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi? Aminning bu gapini Qobil boboga „Ma , ho‘kizing “ ,- deganday bo‘lib ketdi.
- Kam bo‘lmang , - dedi pulni uzatib, - yana xizimatingizdaman.
- Men beto‘xtov pristavga xabar beraman. O‘zi chaqirtiradi.

Bir hafta o‘tdi. Bu bir hafta ichida kampir „duoning zo‘ri bilan qulf ochadigan“ azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo‘xori , ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo‘ldi:

- Ha, ho‘kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir , borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo‘ladi!

Qobil bobo yor-do‘stlar bilan kengashdi- pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo‘ladi? Ma’lum bo‘ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

6. Ellikboshi Qobil boboga qanday maslahatlar berdi?

7. Asarda amaldorlar Qobil boboni qanday qiyin vaziyatlarga soladi? Munosabatingiz?

8. Hikoya qanday yakunlanadi?

## **KICHIK GURUHLARDA ISHLASH USULI**

O‘quvchilarga uch xil rangda kartochkalar tarqatamiz va ranglarga qarab ularni guruhlariga bo‘lamiz va ularga guruhlariga nom qo‘yishlarini maslahat beramiz.

O‘quvchilar har xil nomlarni aytadilar va ulardan uchtasini ajratib olamiz.

1. Yozuvchilar.
2. Suxandonlar
3. Jurnalistlar va boshqa.

Tanlangan guruhlardan har bir komandadan bittasiga hikoya matnini jummalarga bo‘lib o‘qitamiz. Guruhlarning boshqa a‘zolari o‘qilgan matnning mazmunini qayta tahlil qiladilar va savollar tuzadilar. Guruhlar bu savollarni bir-birlariga beradilar.

## Savollar

1. Hikoyaga qanday epigraf tanlangan?
2. Maqol mazmunini sharhlang?
3. Yozuvchi bu bilan nima demoqchi?
3. Hikoya haqida fikringiz?
4. Asar ahamiyati nimada?
5. Berilgan jumlar mazmunini izohlang?

1. Kechqurun Qobil bobo aminning oliga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? **Berganga bitta ham ko'p olganga o'nta ham oz.** Chol – kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

2. Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir „duoning zo'ri bilan qulf ochadigan“ azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo'ldi:

- Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!

3. Qobil bobo yor-do'stlar bilan kengashdi- pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kuruk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tishuntirishini va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa diya oladimi? „O'ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan“, „Yaxshilab tushuntirilgan“ pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pul olganidan keyin Qobil boboning baxtiga: „Beto'xtov hokimga xabar beraman“, -demasdan: „Aminga bor“, -deb qo'ya qoldi. Amin: „Ellikboshiga borilsin“, -dedi.

## “CHALKASHTIRILGAN MANTIQUIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI”

### INTERFAOL METODI

Masalan, “Ta’lim metodlari” mavzusi bo’yicha amaliy mashg’ulot o’tkazilayapti, deylik. Dastlab o’qituvchi doskaga ta’lim metodlarni chalkashtirilgan holda yozib qo’yadi. So’ngra, ulardan mazkur metodlarni qaysi guruhga kirishiga qarab, og’zaki, ko’rgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

Hikoya

Videometod

Munozara

Didaktik o’yinlar

Suhbat

Tushuntirish

Ma’ruza

Kitob bilan ishlash

Demonstratsiya

Og’zaki	Ko’rgazmali	Amaliy
Hikoya	Videometod	Matni o’qish
Munozara	Kitob bilan ishlash	Didaktik o’yinlar
Suhbat	Demonstratsiya	Laboratoriya metodi
Tushuntirish		
Ma’ruza		

O’quvchilarning istak va - hohishlaridan kelib chiqib, og’zaki, ko’rgazmali, amaliy qismlar aniqlanadi va dars davom ettiriladi.

Hikoya usulida “O’g’ri” hikoyasi mazmuni bilan yaqindan tanishadilar va asarninigi mazmuni haqida munozara-bahs yuritadilar. Asar haqida suhbatlashadilar va guruhlar bir-birlariga tushuntiradilar. O’qituvchi o’z taqdimotini bayon qiladi. O’quvchilarga hikoya matnidan belgilangan jummalarni o’qish topshirig’i beriladi. O’quvchilar asar haqida mulohazalarini aytib fikrlashadilar. Asar qahramonlari rollarini bajarishga harakat qiladilar. Masalan, kimdir kampir rolini, yana birlari

Qobil bobo rolini boshqalari ellik boshi va mingboshi rollarini ijro qilib asar qahramonlari soʻzlarini aytib koʻradilar va oʻquvchilar oʻzlarining aktyorlik mahoratlarini ham sinab koʻradilar.

Dars oxirida oʻqituvchi hozirgi kunda biror narsamiz yoʻqolib qolsa nimalar qilamiz. Qani oʻquvchilar yaqin kunlar ichida shunday voqealarni eshitdinglarmi? degan savollar bilan oʻquvchilarga murojaat qiladi. Yozuvchi tasvirlagan davr bilan hozirgi kundagi davr muammolari qiyoslanadi. Bugungi hayotimizda ham oʻgʻrilik kabi yaramas illatlar oz boʻlsa ham uchrab turadi. Oʻquvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun zamin tayyorlanadi. Bu hikoya negizida oʻquvchilarda tevarak-atrofimizda boʻlayotgan voqea-hodisalarga befarq boʻlmaslik hissi shakllantiriladi.

## **6-sinfida A.Qahorning “Bemor” hikoyasi oʻqitish usullari**

### **“CHALKASHTIRILGAN MANTIQUIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI” INTERFAOL METODI**

Masalan, “Taʼlim metodlari” mavzusi boʻyicha amaliy mashgʻulot oʻtkazilayapti, deylik. Dastlab oʻqituvchi doskaga taʼlim metodlarni chalkashtirilgan holda yozib qoʻyadi. Soʻngra, ulardan mazkur metodlarni qaysi guruhga kirishiga qarab, ogʻzaki, koʻrgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

Hikoya

Videometod

Munozara

Didaktik oʻyinlar

Suhbat

Tushuntirish

Maʼruza

Kitob bilan ishlash

Demonstratsiya

<b>Ogʻzaki</b>	<b>Koʻrgazmali</b>	<b>Amaliy</b>
Hikoya	Videometod	Matni oʻqish
Munozara	Kitob bilan ishlash	Didaktik oʻyinlar

Suhbat Tushuntirish Ma'ruza	Demonstratsiya	Laboratoriya metodi
-----------------------------------	----------------	---------------------

O'quvchilarning istak va - hohishlaridan kelib chiqib, og'zaki, ko'rgazmali, amaliy qismlar aniqlanadi va dars davom ettiriladi.

Hikoya usulida "Bemor" hikoyasi mazmuni bilan yaqindan tanishadilar va asarining mazmuni haqida minozara-bahs yuritadilar. Asar haqida suhbatlashadilar va guruhlar bir-birlariga tushuntiradilar. O'qituvchi o'z taqdimotini bayon qiladi. O'quvchilarga hikoya matnidan belgilangan jummalarni o'qish topshirig'i beriladi. O'quvchilar asar haqida mulohazalarini aytib fikrlashadilar. Asar qahramonlari rollarini bajarishga harakat qiladilar. Masalan, kimdir Sotiboldining xotini rolini, yana birlari bemor qiz rollarini ijro qilib asar qahramonlari so'zlarini aytib ko'radilar va o'quvchilar o'zlarining aktyorlik mahoratlarini ham sinab ko'radilar.

Dars oxirida o'qituvchi hozirgi kunda birortamiz kasallanib qolsaak nimalar qilamiz degan savollar bilan o'quvchilarga murojaat qiladi. Yozuvchi tasvirlagan davr bilan hozirgi kundagi davr muammolari qiyoslanadi. Bugungi hayotimizda ham kasallanib qolishholatlari uchrab turadimi. O'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun zamin tayyorlanadi. Bu hikoya negizida o'quvchilarda tevarak- atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik hissi shakllantiriladi.

## **YOZMA VA OG'ZAKI "DAVRA SUHBATI" USULI**

Yozma "Davra suhbat" – bu birgalikdagi o'qitish metodi bo'lib, bunda qog'oz va ruchka doimo aylana bo'ylab, o'yin ishtirokchilarining kichik guruhi orasida uzatib turiladi. Misol uchun, sheriklardan bir qandaydir g'oyani yozib, keyin varaqni chap tomonidagi sherigiga uzatadi. U o'sha g'oyaga o'zining qandaydir mulohazalarini qo'shadi va varaqni keyingi kishiga uzatadi. Ushbu rusum-qoidaning boshqa variantida har bir ishtirokchi yozuvini o'zining rangi bilan yozadi. Bu umumiy fikrni shakllantirishda qo'shilgan hissani ko'rinarli darajada ko'rsatib

turadi va o'qituvchiga tushunishga va har birining ishtirokini qayd qilishga yordam beradi.

Og'zaki "Davra suhbat" – bu birgalikda o'qitish metodi bo'lib, oldingisiga o'xshaydi, faqat u og'zaki shaklda o'tkaziladi. Har bir ishtirokchi navbati bilan oldingi odam aytgan fikrni ilg'ab oladi va rivojlantiradi.

Bemor hikoyasida og'zaki davra suhbatini metodini qo'llaganimizda barcha savol –javoblar og'zaki bo'ladi. Har bir o'quvchi o'z mulohazalarini og'zaki aytadi. Bir o'quvchi o'z fikrini tugatgandan keyin ikkinchisi mulohazalarni davom ettiradi. O'quvchilarni guruhlariga bo'lamiz. Hohlovchilardan yoki tartib bilan o'quvchilar asardagi voqealar haqida fikrlarini aytadilar.

### **Savollar**

1. Sotiboldi qanday ish bilan shug'ullanadi?
2. Nima uchun Sotiboldi xotinini davolata olmaydi?
3. Bemor nimaga dadasiga qizimni uyg'otmang deb aytadi?
4. Voqea bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin edimi?
5. Hozirgi kunda bunday hodisalar hayotimizda uchraydimi?
6. Bugungi kunda bunday voqealarga namunalari keltira olamizmi?
7. Kasallanib qolsak avvalo nima qilishimiz kerak?
8. Bunday holatlarning bo'lishiga asosiy sababchi kim deb o'ylaysiz?
9. Bemorning vafot qilishida kim aybdor deb bilasiz?
10. Hozirgi kunda bunday hodisalar uchraydimi?
11. Yozuvchining asosiy maqsadi nima deb o'ylaysiz.

**Erkin yozish.** Talabalarga besh daqiqa ichida "Bemor" hikoyasi mavzusi bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e'lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug'iladi) ularga o'z yozganlarini sheriklariga o'qib berishini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o'qituvchining ixtiyorida ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruh-hujum vaziyatini yaratish mumkin.

O‘quvchilar bemor haqida uning ayanchli ahvoli to‘g‘risida, o‘sh muhit haqida va boshqalarni yozadilar. Hech narsa yozaolmaydigan o‘quvchi bo‘lsa ularga o‘qituvch yordamlashadi. O‘quvchilar hikoyada shunday maqol keltirilgan Osmon yiroq, yer qattiq. Bu nima degani? Nimalarni yoza olasizlar. Bemor kim? Nimaga onasi dadasiga qizini uyg‘otmaslikni aytadi? Bu holatni qanday izohlaysiz? va boshqalar.

Quyidagi jumlar haqida fikrlaringizni yozin:

1. Sotiboldining xotini og‘rib qoldi. Sotiboldi kasalni o‘qitdi-bo‘lmadi, tabibga ko‘rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko‘zi tinib boshi aylanadigan bo‘lib qoldi. Baxshi o‘qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi.

2. To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan qo‘riydi; ba‘zan qo‘lida ro‘molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin – yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi- „ Hey do‘st, shaydullo ba nomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo... “

3. Yana ko‘zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi- saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda, qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

- Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin

## **BEMOR**

Osmon yiroq, yer qattiq.

(Maqol)

Sotiboldining xotini og‘rib qoldi. Sotiboldi kasalni o‘qitdi-bo‘lmadi, tabibga ko‘rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko‘zi tinib boshi aylanadigan bo‘lib qoldi. Baxshi o‘qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinning oldiga arzga bordi, ammo bu borishidan muddaosi nima ekanligini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

Devonai Bahouddinga hech narsa ko'tardingmi? G'ovsula'zamga-chi?  
Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi- har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U ertadan kechgacha oftob shuvoqda gavronlar ichida ko'milib savat to'qirdi. To'rt yashar qizchasi qo'lga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin – yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi- „ Hey do'st, shaydullo ba nomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo... “

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga birov solingan kishiday talvasag tushar edi. Qo'shnisi – bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq - bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatganicha duo qildi:

Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan kun battar, oxiri o‘sal bo‘ldi. „ Ko‘ngliga armon bo‘lmasin “ deb, „ chilyosin “ ham qildirishga to‘g‘ri keldi. Sotiboldi to‘qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yogirma tanga qarz ko‘tardi. „ Chilyosin “ dan bemor tetik chiqqanday bo‘ldi; shu kechasi hatto ko‘zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg‘otmang.

Yana ko‘zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi- saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda, qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin....

**Erkin yozish.** Talabalarga besh daqiqa ichida “O‘g‘ri” hikoyasi mavzusi bo‘yicha o‘z xayollariga kelgan barcha narsalarni to‘xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e‘lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug‘iladi) ularga o‘z yozganlarini sheriklariga o‘qib berishini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o‘qituvchining ixtiyorida ko‘p imkoniyatlar bo‘ladi. Masalan, juftliklarga o‘z fikrlarini butun guruh bilan o‘rtoqlashishni taklif etish va guruhiy-aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

DAHSHAT hikoyasini o‘qitish usullari

Savollar

- 11.Hikoya mazmunini o‘qish.
- 12.Asar haqida fikrlar.
- 13.Hikoyadan tasirlangan joylarinig?
- 14.Asar ahamiyati nimada?
15. Yozuvchi bu hikoyada qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
- 16.Asardan keltirilgan parchalarni ozohlang?
- 17.Asar qahramonlari kimlar?
18. Dodho timsoliga tavsif bering?

19. Unsun qanday obraz?

20. Nodirmohbegim qanday ishlarni bajardi va uni qanday obraz turiga kiritasiz? Dalillar

Bu savollarni og‘zaki va yozma shakllarda dars o‘qitishning barcha turlarida foydalanish mumkin.

Jumladan, zanjirlar ketma-ketligi usulida va nuammoli vaziyat usullarida ham o‘qitish mumkin.

O‘quvchilarning istak va - hohishlaridan kelib chiqib, og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy qismlar aniqlanadi va dars davom ettiriladi.

Hikoya usulida “Dahshat” hikoyasi mazmuni bilan yaqindan tanishadilar va asarninig mazmuni haqida minozara-bahs yuritadilar. Asar haqida suhbatlashadilar va guruhlar bir-birlariga tushuntiradilar. O‘qituvchi o‘z taqdimotini bayon qiladi. O‘quvchilarga hikoya matnidan belgilamgam jummalarni o‘qish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar asar haqida mulohazalarini aytib fikrlashadilar. Asar qahramonlari rollarini bajarishga harakat qiladilar. Masalan, kimdir Unsun rolini, yana birlari Dodho rollarini ijro qilib asar qahramonlari so‘zlarini aytib ko‘radilar va o‘quvchilar o‘zlarining aktyorlik mahoratlarini ham sinab ko‘radilar.

Dars oxirida o‘qituvchi hozirgi kunda birortamiz kasallanib qolsaak nimalar qilamiz degan savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi. Yozuvchi tasvirlagan davr bilan hozirgi kundagi davr muammolari qiyoslanadi. Bugungi hayotimizda ham kasallanib qolishholatlari uchrab turadimi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun zamin tayyorlanadi. Bu hikoya negizida o‘quvchilarda tevarak- atrofimizda bo‘layotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘lmaslik hissi shakllantiriladi.

Hikoya- asar mazmuni bilan tanishiladi.

Videometod- taqdimot ko‘rsatiladi.

Munozara- asar qahramonlari haqida munozara yuritiladi

Didaktik o‘yinlar- hikoya qahramonlarining rollari ijro qilinadi

Suhbat- obrazlar haqida suhbatlashiladi

Tushuntirish- guruglarda o‘quvchilar bir-birlari bilab o‘rtoqlashadilar.

Ma’ruza-o‘qituvchi yoki o‘quvchilar asar ni o‘qiydilar

Kitob bilan ishlash- belgilangan jumlar o'quvchilarga o'qitilib, mazmuni sharhlanadi.

Demonstratsiya har bir guruh o'z ijodlarini , yani hikoya haqidagi taassurotlarini og'zaki va yozma tarzda namoyish qiladilar.

## XULOSA

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyotining etuk namoyandalaridan biridir. Uning hajm jihatidan kichik bo'lsa-da, o'zida bir olam ma'no ifodalaydigan hikoya va qissalari har bir kitobxonga ma'lum va mashhur.

Buyuk hikoynavis Abdulla Qahhor mahorati u yaratgan har bir timsolda, har bir detalda namoyon bo'ladi. Adib ijodida hayot va o'lim tushinchalari o'ziga xos tarzda talqin qilinadi.

Abdulla Qahhornong "Ming bir jon", "Mahalla", "Bemor", "To'yda aza", "Dahshat" kabi hikoyalarida o'lim sahnalarini uchratamiz. Bu hikoyalar mavzu jihatdan esa chuqur, shu bois har bir hikoyadagi o'lim sahnasi turlicha berilgan. Masalan, "Mahalla" hikoyasidagi o'lim shu qadar sodda tasvirlangan bo'lib, qahramon oson va shunchaki vafot etadi. Lekin bu voqea qahramonning yaqinlariga og'ir va uzoq ta'sir ko'rsatadi. Bu o'lim sahnasi hikoya boshida keltirilib, keyingi voqealarga turtki beruvchi, asos bo'luvchi hodisa vazifasini bajaradi. Asarda adib o'lgan insonning ortidan o'lib bo'lmasligini, uni qanchalik yaxshi ko'rmasin, unga suyanmasin, usiz hayotni tasavvur qila olmasa ham, ruhiy tushkunlikka tushmasligi zarurligi boshqa mehribon, oqil insonlar yordamida hayotning naqadar go'zal va aziz ekanligini anglab etishi va yashashda davom etishi kerakligini to'la holda aks ettirib bergan.

«Bemor» hikoyasida buning aksi. Unda qahramonning hayotni tark etishi asar echimi sifatida berilgan. Bu hikoya eng qayg'uli hikoyadir. Chinki undagi o'limga qadar bo'lgan voqealar o'quvchining his-tuyg'ulariga qattiq ta'sir o'tkazib, inson qalbida achinish hissini uyg'otadi. Bu achinish birgina vafot etgan kishigagina emas, uning o'limidan iztirob chekishi mumkin bo'lgan kishigagina emas, uning o'limidan iztirob chekatishi mumkin bo'lgan boshqa insonlarga ham qaratilgan. Bu hikoyadagi o'lim chinakam fojea sifatida berilgan.

Adibning noyob mazmunda yozilgan, o'zida dahshatli o'lim sahnasini singdirilgan asari bu «Dahshat» hikoyasidir. Hikoya ijtimoiy muammolardan tashqari boshqa ko'p xususiyatlarni ham qamrab oladi. Abdulla Qahhorning bu asari hech bir qolipga sig'maydigan tasvirlar orqali ifodalangan. Biz hikoya orqali

hayotga o'ta hirs qo'ygan, o'lim haqida hatto o'lashga ham qo'rqadigan, o'limni eslatuvchi narsalardan hamisha ko'z yumivcho insonlar borligini bilib olamiz. Asarda hayot jilvasiga boshqa tomondan nazar tashlashga, hayotni erkin va sokin kuzatishga orzumand bo'lgan va bu yo'lda o'z jonini ham qurbon qilgan ayol obrazini ham ko'ramiz. Hayotda shunday vaqtlar ham bo'lar ekanki, unda inson tirik odamlar orasida bo'la turib o'zida qabristonda turgandan og'irroq qo'rquv va iztirobni his etar ekan. «Dahshat» hikoyasida o'lim va hayot o'rtasida tutash nuqtalar aks etgan. Qahramonning dunyodan ko'z yumishi ayanchli va alamli asar echimidir.

Yuqoridagi hikoyalarda hayot va o'lim talqini bir necha jihatlar orqali birikib turadi. Ya'ni o'lim hech qachon kishilarga quvonch olib kelmaydi. U kishilarga kutilmagan holat va vaqtda tashrif buyiradi. Hayot esa insonlar uchun berilgan oily ne'mat ekanligini Abdulla Qahhor hikoyalari yana bir bor tasdiqlaydi.

Adib asarlarini o'qitishning muammoli vaziyat, kichik guruhlarda ishlash, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma- ketligi, yozma va og'zaki davra suhbat, bumerang usuli, blits texnologiyasi, keys usuli va boshqa ko'plab zamonaviy usullari asosida umumta'lim maktablarida o'qitish va xulosalar chiqarish ilmiy tadqiqot ishining ahamiyatli vazifalaridan biridir. Har qanday o'qitish usuli negizida o'quvchilarga mavzuning mazmun va mohiyatini teran tushuntirish dolzarb vazifa qilib belgilanadi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, asarlar mazmunini hozirgi adabiy jarayon bilan bog'lash ham asosiy vazifalardan deb bilamiz. Shunday usullar yordamida o'quvchining o'ylash qobiliyatini shakllantiramiz va ularni tevarak-atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo'lishlariga erishamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –T.: O‘zbekiston, 2009.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004.
4. Matyoqub Qo’shjonov. Abdulla Qahhor mahorati. – T.: 2006.
6. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
7. N.Karimov. XX sar adabiyoti manzaralari. – T .: O‘zbekiston, 2008.
8. Abdulla Qahhor Zamondoshlari xotirasida. – T .: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
9. O. Sharafiddinov. Abdulla Qahhor. – T .: Yosh gvardiya, 1988.
10. E. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Sharq, 2008.
11. S. Matchonov, Sh. Sariyev. Adabiyot. – T.:Yurist media markazi.2010.
12. M. Ibrohimov. Adabiyot mening borlig’im. –T.: Yangi nashr, 2009.
13. Abdulla Qahhor. Asarlar.I jild. – T .: Adabiyot va san’at, 1987.
14. Abdulla Qahhor. Asarlar.II jild. – T .: Adabiyot va san’at, 1987.
15. Abdulla Qahhor. Asarlar.III jild. – T .: Adabiyot va san’at, 1988.
16. Abdulla Qahhor. Asarlar.IV jild. – T .: Adabiyot va san’at, 1988.
17. Abdulla Qahhor. Asarlar.V jild. – T .: Adabiyot va san’at, 1989.
18. Normatov U. Ijod sehri. –T.: Sharq, 2007.
19. [www. o‘zbek adabiyoti.com](http://www.o‘zbekadabiyoti.com)
20. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
21. [www. nuqf. intal. Uz](http://www.nuqf.intal.Uz)

